



Tadqiqot.uz

**ЎЗБЕКИСТОН  
ОЛИМЛАРИ ВА  
ЁШЛАРИНИНГ  
ИННОВАЦИОН  
ИЛМИЙ-АМАЛИЙ  
ТАДҚИҚОТЛАРИ  
МАВЗУСИДАГИ КОНФЕРЕНЦИЯ  
МАТЕРИАЛЛАРИ**

2021

- » Хуқуқий тадқиқотлар
- » Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар
- » Тарих саҳифаларидағи изланишлар
- » Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни
- » Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни
- » Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар
- » Педагогика ва психология соҳаларидағи инновациялар
- » Маданият ва санъат соҳаларини ривожланиши
- » Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши
- » Техника ва технология соҳасидаги инновациялар
- » Физика-математика фанлари ютуқлари
- » Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар
- » Кимё фанлари ютуқлари
- » Биология ва экология соҳасидаги инновациялар
- » Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари
- » Геология-минерология соҳасидаги инновациялар



Crossref



CONFERENCES.UZ

31 MAY  
№28

**"ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР"  
МАВЗУСИДАГИ РЕСПУБЛИКА 28-КҮП ТАРМОҚЛИ  
ИЛМИЙ МАСОФАВИЙ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЯ  
МАТЕРИАЛЛАРИ  
1-ҚИСМ**

---

**МАТЕРИАЛЫ РЕСПУБЛИКАНСКОЙ  
28-МЕЖДИСЦИПЛИНАРНОЙ ДИСТАНЦИОННОЙ  
ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИИ НА ТЕМУ "НАУЧНО-  
ПРАКТИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ"  
ЧАСТЬ-1**

---

**MATERIALS OF THE REPUBLICAN  
28-MULTIDISCIPLINARY ONLINE DISTANCE  
CONFERENCE ON "SCIENTIFIC AND PRACTICAL  
RESEARCH IN UZBEKISTAN"  
PART-1**

**ТОШКЕНТ-2021**



УУК 001 (062)  
КБК 72я43

## "Ўзбекистонда илмий-амалий тадқиқотлар" [Тошкент; 2021]

"Ўзбекистонда илмий-амалий тадқиқотлар" мавзусидаги республика 28-кўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 31 май 2021 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2021. - 43 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн конференция 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналишлари бўйича Ҳаракатлар стратегиясида кўзда тутилган вазифа - илмий изланиш ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишиланган.

Ушбу Республика илмий конференцияси таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илфор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари таҳлил қилинган конференцияси.

**Масъул мухаррир:** Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

### **1.Хуқуқий тадқиқотлар йўналиши**

Профессор в.б.,ю.ф.н. Юсувалиева Раҳима (Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

### **2.Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар**

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна(Фаргона давлат университети)

### **3.Тарих саҳифаларидағи изланишлар**

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси хузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

### **4.Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни**

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган мухандислик-қурилиш институти)

### **5.Давлат бошқаруви**

Доцент Шакирова Шохида Юсуповна (Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети)

### **6.Журналистика**

Тошбоева Барнохон Одилжоновна(Андижон давлат университети)

### **7.Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар**

Самигова Умида Хамидуллаевна (Тошкент вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш худудий маркази)



**8.Адабиёт**

PhD Абдумажидова Дилдора Раҳматуллаевна (Тошкент Молия институти)

**9.Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни**

Phd Воҳидова Меҳри Ҳасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

**10.Педагогика ва психология соҳаларидағи инновациялар**

Турсунназарова Эльвира Тахировна (Навоий вилоят ҳалқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)

**11.Жисмоний тарбия ва спорт**

Усмонова Дилфузахон Иброҳимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

**12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш**

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

**13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши**

Бобоҳонов Олтибод Рахмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

**14.Тасвирий санъат ва дизайн**

Доцент Чариеv Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

**15.Мусиқа ва ҳаёт**

Доцент Чариеv Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

**16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар**

Доцент Нормирзаев Абдуқаюм Раҳимбердиевич (Наманганд мухандислик-курилиш институти)

**17.Физика-математика фанлари ютуқлари**

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманганд мухандислик-технология институти)

**18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар**

Т.Ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

**19.Фармацевтика**

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

**20.Ветеринария**

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

**21.Кимё фанлари ютуқлари**

Рахмонова Доно Қаҳхоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



**22.Биология ва экология соҳасидаги инновациялар**

Йўлдошев Лазиз Толивович (Бухоро давлат университети)

**23.Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари**

Доцент Сувонов Боймурод Ўралович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

**24.Геология-минерология соҳасидаги инновациялар**

Phd доцент Қаҳҳоров Ўқтам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

**25.География**

Йўлдошев Лазиз Толивович (Бухоро давлат университети)

*Тўпламга киритилган тезислардаги маълумотларнинг хаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулdir.*

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz  
ООО Tadqiqot, город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000

**ХУҚУҚИЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЙЎНАЛИШИ**

**1. Iskandarov Zuxriddin Inomiddin o‘g‘li**

AFG‘ONISTON ISLOM RESPUBLIKASIDA TINCHLIK VA XAVFSIZLIKNI  
TA’MINLASHDA XALQARO SHARTNOMALAR VA KELISHUVLARNING O‘RNI..... 7

**2. Самандаров Учқун Укташович**

МАЪМУРИЙ СУД ИШЛАРИНИ ЮРИТИШДА ТАРАФЛАРНИНГ ТОРТИШУВИ ВА  
ТЕНГ ХУҚУҚЛИЛИГИ ..... 11

**3. Qahhorova Shahzodabonu Tavakkal qizi**

AYBIGA IQRORLIK TO‘G‘RISIDAGI KELISHUV INSTITUTI JINOYAT VA  
JINOYAT-PROTSESSUAL QONUNCHILIGINI LIBERALLASHTIRISHNING  
MUHIM BOSQICHI SIFATIDA ..... 14

**4. Усанов Юсуф Мейлиевич**

БАЛЛИСТИК ЭКСПЕРТИЗАЛАРДА ЭКСПЕРИМЕНТАЛ ТАДҚИҚОТЛАР ..... 17

**5. Sharipov Shaxzod Shuhratovich**

DAVLAT BOSHQARUVI ORGANLARINI OPTIMIZATSİYALASH SOHASIDA XORIJU  
TAJRIBANING O‘ZBEKİSTONDA TATBIQ ETILISHI MASALALARI ..... 19

**6. Балтабаева Жадра Рустамовна**

БОЛАНИНГ ТАЪМИНОТИ УЧУН АЛИМЕНТ ТЎЛАШ МАЖБУРИЯТЛАРИ ..... 21

**7. Абдуллаев Нурулла Абдулла ўғли**

ФУҚАРОЛИК ҚОНУН ҲУЖЖАТЛАРИГА МУВОФИҚ МАЖБУРИЙ ШАРТНОМА  
ТУЗИШНИНГ МОҲИЯТИ ВА УМУМИЙ АСОСЛАРИ ..... 23

**8. Сайдмавлонова Гуласалхон Сайдакрамхон қизи**

ПРАВОВОЙ РЕЖИМ ИНОСТРАННЫХ ИНВЕСТИЦИЙ В УЗБЕКИСТАНЕ ..... 26

**9. Movlonov Bahromali Qodirovich**

BYUDJET QONUNCHILIGINI BUZGANLIK UCHUN MA‘MURIY JAVOBGARLIK ..... 30

**10. Bobakhanova Ikbol Otakhon қизи**

ISSUES OF ELABORATING THE LEGISLATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN  
THROUGH CLASSIFICATION OF CONTRACTS IN CIVIL LAW AND COMMON LAW  
SYSTEMS ..... 31

**11. Ibrohimov Azimjon Abdumo’mın o‘g‘li**

ZARAR – YURIDIК SHAXS ISHTIROKCHILARI VA BOSHQARUV ORGANLARI  
FUQAROLIK-HUQUQIY JAVOBGARLIGINING ZARURIY SHARTI SIFATIDA ..... 33

**12. Yoqubova Ro`zigul Olim қизи, Akmuradova Anora Qurbon қизи**

O‘ZBEKİSTONDA KORRUPSIYANING DOLZARB MUAMMOLARI ..... 36

**13. Аслонова Орзигул Исройл қизи**

ЯККА ТАРТИБДАГИ ТАДБИРКОРЛИК СУБЬЕКТЛАРИНИНГ ҲУҚУҚИЙ  
МАҚОМИ ..... 38



## ҲУҚУҚИЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЙЎНАЛИШИ

### AFG'ONISTON ISLOM RESPUBLIKASIDA TINCHLIK VA XAVFSIZLIKNI ТА'MINLASHDA XALQARO SHARTNOMALAR VA KELISHUVLARNING O'RNI

Iskandarov Zuxriddin Inomiddin o'g'li

Toshkent davlat yuridik universiteti magistratura talabasi  
+998935299601

**Annotatsiya:** ushu maqolada uzoq yillardan beri dunyo hamjamiyati oldidagi asosiy muammolardan biri bo'lib kelayotgan Afg'oniston muammosini hal etishda xalqaro shartnomalarning va kelishuvlarning o'rni muhokama qilinadi.

**Kalit so'zlar:** Afg'oniston, xalqaro shartnomalar, kelishuvlar, BMT ustavi, Toshkent deklaratsiyasi, Doha deklaratsiyasi.

Barchamizga ma'lumki, xalqaro munosabatlarda, davlatlararo aloqalarda, tinchlik va xavfsizlikni ta'minlashda xalqaro shartnomalarning, kelishuvlar va boshqa xalqaro hujjatlarning o'rni beqiyos sanaladi.

Xalqaro harakatlar, xalqaro nizolarni hal etish yo'lidagi chora-tadbirlar albatta xalqaro hujjatlarga asoslanadi.

Biz Afg'onistonda tinchlik va xavfsizlikni ta'minlash mexanizmlarini qo'llash yo'lidagi asosiy huquqiy asos sifatida BMT Ustavini bilamiz. Ushbu ustavda BMT ning, uning organlarining vakolatlari, nizolarni hal etish masalalari va usullari aks ettirilgan.

BMT Ustavining 11-moddasiga asosan Bosh Assambleya xalqaro tinchlik va xavfsizlikni saqlash ishida hamkorlikning umumiyligi prinsiplarini, shu jumladan, qurolsizlanish va qurolyarog'ni tartibga solishni belgilab beruvchi prinsiplarni ko'rib chiqishga va shu qoidalar yuzasidan Tashkilot a'zolariga hamda Xavfsizlik Kengashiga yoki Tashkilot a'zolariga ham, Xavfsizlik Kengashiga ham tavsiyalar berishga haqli hisoblanadi.

Bosh Assambleya Xavfsizlik Kengashining e'tiborini xalqaro tinchlik va xavfsizlikka tahdid qilishi mumkin bo'lgan vaziyatlarga jalb eta oladi.

Shuningdek, ustavda nizolarni hal etish borasida ishtirokchi davlatlarning huquq va majburiyatlarini belgilab qo'yilgan. Jumladan, Ustavning 43-moddasiga asosan tashkilotning barcha a'zolari xalqaro tinchlik va xavfsizlikni saqlash ishiga o'z hissasini qo'shish uchun Xavfsizlik Kengashi ixtiyoriga uning talabi bo'yicha va maxsus bitim yoki bitimlarga binoan xalqaro tinchlik va xavfsizlikni saqlash uchun zarur qurolli kuchlar, yordam va tegishli xizmat vositalarini, shu jumladan, hududidan o'tish huquqini berish majburiyatini oladilar.

Biz yuqorida keltirib o'tgan modda amalda qo'llanilishiga misol tariqasida Afg'onistonga xalqaro tinchlikparvar kuchlar kirishiga boshqa davlatlar tomonidan zamin yaratib berilishi, tranzit yuklarni tashishda o'z hududidan o'tish huquqini bergenligini keltirib o'tishimiz mumkin. Xususan, O'zbekiston Respublikasi ham mazkur norma talablariga rioya qilgan holda ISAF ga yo'naltirilgan oziq-ovqat va ijtimoiy yuklarni o'z hududidan o'tkazilishiga ruxsat bergenligini qayd etish mumkin.

Bundan tashqari, boshqa hujjatlar ham mavjud muammoni hal etishda muhim ahamiyatli hisoblanadi.

1988-yilda Afg'oniston bo'yicha imzolangan Jeneva kelishuvlari<sup>1</sup>, shuningdek, Afg'oniston

<sup>1</sup> Н.И.Козырев, Роль дипломатии в разблокировании «афганского узла»: от «Женевы – 88» до наших дней, М., 2009. Приложения с. 116-204.



muammosi yuzasidan o'tkazilgan Bonn<sup>1</sup>, London va Kobul<sup>2</sup> konferensiyalari natijasida qabul qilingan hujjatlar mavjud muammoni hal etish yo'lida qabul qilingan dastlabki hujjatlardan deyishimiz mumkin.

Jenevada Sovet Ittifoqi, AQSH, Afg'oniston va Pokiston vakillari tomonidan 1988-yil 14-aprelda Afg'oniston muammosini hal qilish borasida imzolangan bitim ham muhim ahamiyatga ega xalqaro-huquqiy hujjat hisoblanadi.

Ushbu hujjatda qayd etilgan majburiyatlarni bajarish asnosida SSSR tomonidan Afg'oniston hududidagi harbiy kuchlar olib chiqib ketila boshlandi va 1989-yilning 15-fevralda SSSR qo'shinlari Afg'onistonne butunlay tark etdi<sup>3</sup>.

Sh tufayli ham, Jenevada o'tkazilgan ko'p yillik muzokaralar so'nggia qabul qilingan xalqaro-huquqiy hujjatlarni samarali deya hisoblashimiz mumkin bo'ladi.

Bizga ma'lumki, Afg'onistondagi holat nafaqat o'zining terrorizm xavfini kuchaytirganligi, balki narkobiznesni avj oldirganligi bilan ham xavflidir. Shu xavfni bartaraf etish maqsadida ham bir necha xalqaro hujjatlar qabul qilingan. Jumladan, Berlinda o'tkazilgan xalqaro konferensiya doirasida Afg'oniston va unga chegaradosh 6 ta davlat – Xitoy, Pokiston, O'zbekiston, Eron, Turkmaniston hamda Tojikiston o'rtasida 2004-yil 1-aprelda "Narkotik moddalarga qarshi kurash to'g'risida deklaratsiya" imzolangan<sup>4</sup>. Ushbu deklaratsiya shartlariga muvofiq, ishtirokchi davlatlar Afg'oniston bilan chegaradosh hududlarda bufer zonasini yaratishga va narkotik moddalar savdosiga qarshi birgalikda kurashishga kelishib oldilar.

Tolibonlar harakati bilan bog'liq nizolarni tinch yo'l bilan hal etishda O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti tashabbusi bilan tuzilgan "6+2" guruhining o'rni ahamiyatli sanaladi.

Mazkur guruhning Toshkent shahrida 1999-yil 19-iyulda o'tkazilgan uchrashuvida "Tolibon" hukumati va muxolifatchi kuchlar vakillari ishtirok etganligi va yakunda BMT hujjati maqomi<sup>5</sup>ga ega bo'lgan "Afg'onistondagi mojaroni tinch yo'l bilan bartaraf etishning asosiy tamoyillari to'g'risida" Toshkent Deklaratsiyasi qabul qilinganligi nizoni hal etish yo'llarini ishlab chiqishda o'ziga xos o'rni egallaydi.

BMTning Afg'oniston bo'yicha vakili Laxdar Brahimi ishtirokida tuzilgan Toshkent deklaratsiyasida narkotik moddalar yetishtirish va o'tkazish, terrorizm, noqonuniy qurol-yarog' savdosi nafaqat Afg'oniston, balki butun mintaqalar uchun xavf tug'dirayotganligi qayd etilgan.

Ushbu deklaratsiyada quyidagi xulosalarga kelingan:

- Afg'oniston muammosini harbiy yo'l bilan bartaraf etish mumkin emas (there is no military solution to the Afghan conflict);
- Ushbu muammo vakolatli, ko'p millatli vakillardan tashkil topgan hukumat tashkil etish, tinch siyosiy muzokaralar o'tkazish yo'li bilan hal etilishi lozim;
- O'zaro qarama-qarshi kuchlar maqbul yechim toppish yo'lida muzokaralarni davom ettirishlari lozim va bu "6+2" guruhi ishtirokchilari tomonidan to'liq qo'llab-quvvatlab boriladi;
- Urush harakatlarini to'xtatish uchun barcha tashqi kuchlar tomonidan u yoki bu tarafni qurol-yarog' bilan ta'minlash to'xtatilishi lozim, butun dunyo hamjamiyati Afg'onistonga qurok kirishini oldini olish choralarini ko'rishlari kerak;
- BMTning umumiyo ko'magi ostida BMT Bosh Assambleyasi va Xavfsizlik Kengashining qabul qilgan rezolutsiya va qarorlari, Toshkent deklaratsiyada belgilangan shartlar bajarilishi nizolashayotgan taraflar o'rtasidagi to'g'ridan-to'g'ri muzokaralar olib borilishi va jamoaviy yordam berish asnosida bajarilishi lozim;

- Muzokaralar BMT shafeligida ikki bosqichda o'tkazilishi lozim edi:

- 1) Taraflar o'rtasida o'zaro ishonchni vujudga keltirish uchun barcha zarur chora-tadbirlar ko'rlishi, jumladan darhol va hech qanday shartlarsiz taraflar o'rtasida kelishuv imzolanishi lozim. Shu holatda muzokaralar faol davom ettirilib, asirlarni almashtirish, ichki blokadalarini olib tashlash, yo'llarni ochish, xalqaro gumanitar yordam manzilga yetib boorish choralarini ko'rish.

<sup>1</sup> The Afghanistan Compact. The London Conference on Afghanistan 31 January - 1 February 2006

<sup>2</sup> <http://www.Fso.gov.uk/> Итоговое коммюнике Кабульской конференции сайт МИД ИРА

<sup>3</sup> Спольников В.Н. Афганистан: исламская оппозиция. -С. 132-180.

<sup>4</sup> Сафаев С. Региональное развитие и постконфликтное восстановление Афганистана» Материалы международной конференции (2004 йил 31 март - 1 апрел, Берлин.)

<sup>5</sup> Материалы Ташкентской встречи группы 6+2 по Афганистану под эгидой ООН. (19-20 июля 1999г.)-Т.: 1999.-С.18.



2) Afg'oniston xalqining o'zi kelajakda davlatda qanday asosda vujudga keltirish, qaysi davlat shaklini tanlashni hal etishlarini ta'minlash, hukumatni yagona, ko'p millatlari vakillik asosda qisqa muddatda tuzish masalalari hal etilishi lozim edi.

- Afg'oniston bilan bevosita chegaradosh bo'lgan davlatlar narkotik moddalar savdosini cheklash uchun barcha choralarni ko'rishlari lozim, shuningdek, ushbu jinoyatlarga qarshi ikkitomonlama va ko'ptomonlama bitimlar tuzish orqali kurashishlari lozim;

- "Tolibon harakati" xalqaro terroristik kuchlar bilan hamkorlik qilishni to'xtatmog'i, terroristik tashkilotlarning tinchlik va xavfsizlikka zarar yetkazishiga yo'l qo'ymasligi lozim;

- Taraflar xalqaro huquq normalari bilan belgilab qo'yilgan inson huquqlari va erkinliklariga to'liq rioya etishlari lozim;

- Afg'oniston tuzilajak yangi hukumat mamlakatdan chiqib ketgan qochoqlarni uylariga qaytarish, ularni joylashtirish, xo'jalik faoliyatini tiklashda xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda va BMT dasturlari asosida harakat qilishi lozim.

Keyinchalik, guruh doirasida 2000-yilning aprel oyida Toshkent shahrida "Tomonlarning terrorizm, siyosiy va diniy ekstremizm, transmilliy uyushgan jinoyatchilik va boshqa xavfsizlik hamda barqarorlikka qarshi tahdidlarga qarshi kurashishda hamkorlikda amalga oshiriladigan chora-tadbirlar to'g'risida" gi bitim imzolandi.

Afsuski, shunday muhim takliflar va maqbul yechimlar ilgari surilgan mazkur deklaratsiya shartlari va bitimlar talablari bajarilmasdan qoldi.

2018-yilning 18-yanvarida AQShning Nyu-York shahrida BMT Xavfsizlik Kengashining Markaziy Osiyo va Afg'oniston bo'yicha bo'lib o'tgan maxsus yig'ilishi yakunlari bo'yicha qabul qilingan hujjat ham mavjud muammoni ijobjiy hal etish uchun bir qator muhim xulosalarni o'zida ifodalaydi. Jumladan, mazkur hujjatda preventiv diplomatiya Markaziy Osiyodagi muammoni hal etishda katta ahamiyatga ega bo'lishi ta'kidlangan.

Afg'onistonda tinchlik va xavfsizlikni ta'minlashda 2018-yil mart oyida Toshkentda Afg'oniston bo'yicha o'tkazilgan "Tinchlik jarayoni, xavfsizlik va mintaqaviy harakatlar bo'yicha hamkorlik" nomli konferensiya asosida qabul qilingan Toshkent deklaratsiyasida belgilangan masalalar qo'shni mamlakatda tinchlik o'rnatish borasida muhim hujjat bo'ldi deyish mumkin.

### Doha deklaratsiyasi

Afg'onistonda tinchlik va xavfsizlikni ta'minlashda 2020-yil fevralda qabul qilingan "Afg'onistonda tinchlikni ta'minlash bo'yicha Afg'oniston Islom Respublikasi va Amerika Qo'shma Shtatlari o'rtaida" gi Doha qo'shma deklaratsiyasining o'mni juda muhim hisoblanadi. AQSh tomonidan 20 yildan beri olib borilayotgan harbiy harakatlar Afg'oniston muammosini bu yo'l bilan hal etib bo'lmasligini yaqqol ko'rsatib berdi. Birdan-bir maqbul yo'l – muzokaralar ekanligi yana bir bor isbotlandi.

Ushbu deklaratsiyada taraflar afg'on xalqining manfaatlarini inobatga olgan holda, mintaqaviy barqarorlik va xalqaro xavfsizlikni ta'minlash maqsadida urushni tugatish va o'zaro hamkorlikni davom ettirish majburiyatini zimmasiga olishlari belgilangan.

Taraflar tinchlik kelishuvi to'rt qismni o'z ichiga olishini belgilab qo'yganlar:

1) Afg'oniston tuprog'idan terroristik guruhlar va shaxslar AQSh va uning ittifoqchilariga qarshi foydalanishini oldini olish kafolatlari;

2) Afg'oniston hududidan AQSh va Koalitsiya kuchlarini olib chiqib ketish muddatini;

3) Afg'oniston Islom Respublikasi va "Tolibon" harakati o'rtaсидаги музокаралар ва мулодотни давом ettirish masalalarini;

4) Bir biriga nisbatan o't ochishni butunly to'xtatishni.

Deklaratsiyada, Afg'oniston Islom Respublikasi terrorchilik tashkilotlariga qarshi kurashishi, o'z hududidan foydalanish va odam yollashga yo'l qo'ymasligi, AQSh Afg'oniston hukumati roziligi bilan terrorchilarga qarshi harbiy operatsiyalarda ishtiroy etishi mumkinligi belgilangan.

Shu kabi muhim masalalar o'rin olgan mazkur xalqaro hujjat ko'pyillik muammoni hal etishda muhim ahamiyatga ega bo'lishi mumkin.

Biz yuqorida Afg'oniston muammosiga oid bir necha xalqaro hujjatlari keltirib o'tdik. Bundan tashqari, Afg'oniston bo'yicha o'tkazilgan ko'plab konferensiyalar yakunida qabul qilingan hujjatlar, BMT qarorlari, Bosh Assambleya va Xavfsizlik Kengashi rezolutsiya va qarorlari ham mavjud.



Ammo, mazkur hujjatlarning ko‘pchiligi o‘z samarasini bergenicha yo‘q. Shu sababli, mazkur turdagi xalqaro muammolarni hal etishda o‘z amalga oshirilish mexanizmiga ega xalqaro shartnomma va kelishuv tuzish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Н.И.Козырев, Роль дипломатии в разблокировании «афганского узла»: от «Женевы – 88» до наших дней, М., 2009. Приложения с. 116-204.
2. The Afghanistan Compact. The London Conference on Afghanistan 31 January -1 February 2006
3. <http://www.Fso.gov.uk/> Итоговое коммюнике Кабульской конференции сайт МИД ИРА.
4. Спольников В.Н. Афганистан: исламская оппозиция. -С. 132-180.
5. Сафаев С. Региональное развитие и постконфликтное восстановление Афганистана» Материалы международной конференции (2004 йил 31 март - 1 апрел, Берлин.)
6. Материалы Ташкентской встречи группы 6+2 по Афганистану под эгидой ООН. (19-20 июля 1999г.)-Т.: 1999.-С.18.



## МАЪМУРИЙ СУД ИШЛАРИНИ ЮРИТИШДА ТАРАФЛАРНИНГ ТОРТИШУВИ ВА ТЕНГ ХУҚУҚЛИЛИГИ

Самандаров Учқун Укташович,  
Судьялар олий кенгаши хузуридаги  
Судьялар олий мактаби тингловчиси  
Телефон: +998909466000

**АННОТАЦИЯ:** Мамлакатимизда қонун устиворлигини таъминлаш, фуқароларнинг хуқуқ ва эркинликлари ҳамда қонуний мағфиятларини ҳимоя қилиш ислоҳотларнинг асосий ва бош мақсади ҳисобланади. Мазкур мақола маъмурий ва бошқа оммавий-хуқуқий муносабатлардан келиб чиқадиган низоларни судларда кўришда тортишувчанлик принципини рўёбга чиқариш ҳамда иштирок этувчи шахсларнинг тенг хуқуқлигини таъминлашнинг ўзига хос жиҳатларини очиб беради.

**КАЛИТ СЎЗЛАР:** Тарафларнинг тортишуви, Тенг хуқуқлилик, Функционал принцип, Маъмурий орган, Маъмурий ва бошқа оммавий-хуқуқий муносабат, Низо.

Буюк юонон файласуфи Суқротнинг барчага маълум бўлган шундай бир таникли ибораси бор “Ҳақиқатга тортишув билан эришилади”. Ушбу ибора ҳозирги кунда суд ишларини кўришда ҳам энг муҳим дастуруламал ва қоида сифатида намоён бўлмоқда.

Суд ишида қонуний ва асосли қарор қабул қилиш тарафларнинг тортишуви ва унда иштирок этувчи шахсларнинг тенг хуқуқлигини таъминлаш билан чамбарчас боғлиқидир.

Ўзбекистон Республикасининг Маъмурий суд ишларини юритиш тўғрисидаги кодекси (бундан бўён матнда МСИЮтК деб юритилади) қабул қилиниши билан мамлакатимизда маъмурий ва бошқа оммавий-хуқуқий муносабатлардан келиб чиқадиган низоларни кўриб чиқишининг аниқ талаблари ва тартиби белгиланди.

Ҳар бир процессуал ҳуқуқ тизимида бўлгани каби маъмурий суд ишларининг кўрилишида суд томонидан бир қатор нормаларга амал қилиш керак бўлади. Суд ишларини юритишнинг раҳбарий қоидаси ҳисобланган принципларсиз тасаввур қилиб бўлмайди.

Тарафларнинг тортишуви ва тенг хуқуқлилиги маъмурий суд ишлари юритишнинг муҳим принципларидан бири ҳисобланади.

Бугунги кунда суд-хуқуқ ислоҳотларининг асосий вазифасидан бири ҳам суд процессларида тортишувчилик принципини қучайтириш, тарафларнинг суд процессидаги фаоллигини ошириш, уларга иш бўйича далиллар тўплаш ва уни судга тақдим этиш бўйича кенг имкониятлар яратишдан иборатдир. Зоро, Ҳаракатлар стратегиясининг “Қонун устиворлигини таъминлаш ва суд-хуқуқ тизимини янада ислоҳ қилишининг устувор йўналишлари” деб номланган иккинчи йўналишида ҳам суднинг мустақиллиги ва беғаразлиги, суд процессида томонларининг тортишуви ва тенг хуқуқлик тамойилларини ҳар томонлама татбиқ этиш назарда тутилганлигини такидлаш жоиз.

Суд ишларини юритишда тортишув принципи куйидагиларда намоён бўлади:

биринчидан, ишда иштирок этувчи ҳар қандай шахс иш тўғрисида арз қилиши, баёнотлар бериши, эътиroz билдириши, илтимослар қилиши, судга далиллар топшириш билан ўзининг ҳақлигини исботлаши, иш мазмуни бўйича ўз фикрларини айтиши мумкин;

иккинчидан, агар ишда прокурор иштирок этаётган бўлса, ишнинг айrim масалалари юзасидан, шунингдек ҳамма иш бўйича судга ўз фикрини бериши, башқа шасхларнинг хуқуқ ва эркинликларини ҳимоя қилиш учун судга ариза билан иш кўзғатган ҳолатларда аризачи хуқуқ ва мажбуриятларини амалга ошириши мумкин;

учинчидан, суд холисона усул билан ҳакиқатни аниқлаш мақсадида ўз ташабbusи билан далиллар тўплаш хуқуқига эгадир.

Маъмурий суд ишларини юритишда тарафларнинг тортишуви ва тенг хуқуқлилиги принципи фуқаролик қонунчилиги доирасидан ажралиб чиқкан бўлиб, илмий қарашларда тарафларнинг тортишув принципига турлича таърифлар мавжуд. Ҳусусан, ўзбек цивилист олими Д.Ю.Хабибуллаевнинг фикрича, тортишувчилик тамойили бу ишда иштирок этувчи шахсларнинг иш учун аҳамиятга эга бўлган ҳолатларни исботлаш йўли билан ўз талаб ва эътиrozларини суд олдида билдириш, барча протсессуал ҳаракатларда иштирок этиш ва ҳал қилиниши лозим бўлган барча масалалар юзасидан ўз фикрларини баён қилиш,



шунингдек судга иш ҳолатларини аниқлаш ҳамда тегишли далилларни тўплашга фаол ёрдам кўрсатишдаги хукуқ ва мажбуриятлари йифиндисидир.

Г.А. Шмавоняннинг фикрига қўра, фуқаролик ва жиноят процессуал жараёнда тарафларнинг тортишуви бир хилда намоён бўлади. Ушбу жараёнда тарафлар бир хил ҳукуҳ ва мажбуриятларга эга бўлади ва уни бир хилда амалга оширади, шунингдек суд ҳеч бир тарафга устунлик бермайди.

Маъмурий суд ишларини юритишда тарафларнинг тортишуви ва teng ҳукуқлилиги принципининг белгиланганлиги бу маъмурий ва бошқа оммавий-ҳукуқий муносабатлардан келиб чиқадиган низоларда иштирок этувчи тарафлардан бири давлат ёки у ваколат берган орган иштирок этиши, ва унда уларнинг хукуқ ва мажбуриятларини оддий фуқаро ёки юридик шахснинг мақоми билан бир хилда кўллашни назарда тутади.

Рус ҳукуқшунос олими Е.А.Шилованинг қарашича, маъмурий судлов ишларининг ўзига хос ҳусусияти бўлиб, бир томонидан ҳар доим давлат ҳокимияти ваколатларига эга субъект иштирок этади ва улар оддий фуқаро ёки юридик шахсларга нисбатан суд жараённида ўз ҳукуқ ва манфаатларини амалга ошириш, ҳимоя қилишда имконияти анча кенг ҳисобланади. Ушбу жараёнда суд тарафларнинг тортишуви ва teng ҳукуқлилиги принципини қўллаб, фуқаро ва юридик шахслар бўлган томонга ўз ҳукуқларини рўёбга чиқаришда кўмаклашишга мажбур бўлади.

О.Б. Панкованинг фикрича, маъмурий суд ишларини юритиш жараённида суд тарафларнинг тортишуви ва teng ҳукуқлилигини таъминлаш билан бирга, аризачига унинг бузилган ҳукуқларини тиклаш мақсадида, илтимосга қўра далилларни таъминлаш, дастлабки ҳимоя чоралари кўриш, маъмурий органлардан тегишли далилларни талаб қилиб олиш каби ваколатларни амалга оширади. Зарур ҳолларда суд ҳақиқатни таъминлаш мақсадида иш бўйича аризачи бўлган манфаатдор шахсларга кўмаклашиб, далилларни тўплашда уларнинг амалга ошира олмаган процессуал ҳаракатларини суд ўз ташаббусига қўра ҳам амалга оширади. Ушбу жараёнда суд ўз-ўзидан тарафларнинг тортишуви ва teng ҳукуқлилигига таъсир этади. Айнан шу ҳусусияти билан маъмурий судишлиарини юритишдаги бу принцип фуқаролик ёки жиноят процессуал жараёндан фарқ қиласди.

Тортишув принципи ишда иштирок этувчи шахсларнинг иш юзасидан ўз талаб ва эътиrozларини исботлашдаги фаоллигини, улар томонидан иш метериалларини тузиш тартибини белгилайди, протсессда суднинг ролини оширади ва шу орқали суд томонидан қонуний, асосли ва адолатли қарор қабул қилинишини таъминлайди.

Тортишув принципининг моҳияти шундан иборатки, суд ишларини юритишда тарафлар ўз манфаатлари юзасидан бир-бирларига қарама-қарши бўладилар ҳамда ишларни судда муҳокама қилиш улар ўртасидаги низоли масалани ҳал қилиш асосида олиб борилади.

Ёндашувларга қўра, суд жараённида тортишув принципи ишда иштирок этувчи шахсларнинг фаоллиги асосига тузилган бўлиб, у ўз табиатига қўра демократик ва унинг натижалари ишонарлидир.

Тортишув принципи teng ҳукуқлилик принципи билан ёнма-ён келади. Зеро, тарафлар teng ҳукуқли бўлмас экан, улар ўртасида тортишувнинг бўлиши ҳақида гап бўлиши мумкин эмас. Тарафларнинг teng ҳукуқлилиги Конститутсиянинг 18-моддаси билан ҳам кафолатлаб кўйилган. Унга қўра, Ўзбекистон Республикасида барча фуқаролар бир хил ҳукуқ ва эркинликларга эга бўлиб, жинси, ирқи, миллати, тили, дини, ижтимоий келиб чиқиши, эътиқоди, шахси ва ижтимоий мавқеидан қатъи назар, қонун олдида тенгдирлар.

Мазкур Конституциявий ва ўз навбатида суд ишлари юритишнинг функционал принципи МСИЮтКда белгиланган бўлиб, унга қўра маъмурий суд ишларини юритиш тарафларнинг тортишуви ва teng ҳукуқлилиги асосида амалга оширилади.

Суд холислик ва беғаразликни сақлаган ҳолда, тарафлар ўз процессуал мажбуриятларини бажариши ва ўзларига берилган ҳукуқларни амалга ошириши учун зарур шароитлар яратиб беради.

Суд маъмурий иш бўйича барча ҳақиқий ҳолатларни ҳар томонлама ва тўлиқ аниқлаш чораларини кўради.

Мазкур принципнинг ўзига хос ҳусусиятларидан бири бу унинг маъмурий суд ишлари юритишнинг барча босқичларида амалда бўлишидадир.

Маъмурий суд ишлари юритишда тарафлар сифатида бир томонда фуқаро ёки юридик шахс турса, бошқа томонда эса доимий равишда маъмурий орган ёки мансабдор шахс



ёхуд давлат ваколат берган орган, ташкилот ёки муассасалар туради. Бундан жараёнда суд тарафларнинг суд жараёнидаги мувозанатини сақлаш чораларини кўриши лозим бўлади.

Юқоридагилардан келиб чиқиб, маъмурий суд ишларини юритишда тарафларнинг тортишуви ва тенг ҳуқуқлилиги принципи қўйидагиларда:

ишда иштирок этувчи шахслар (аризачи ва жавобгар) иш материаллари билан танишиш, улардан кўчирмалар (ёки нусха) олиш, суд таркибини ва суд процессининг бошқа иштирокчиларини рад қилиш, далиллар тақдим этиш, далилларни текширишда иштирок этиш, саволлар бериш, илтимосномалар киритиш, судга оғзаки ва ёзма тушунтиришлар бериш, ишни кўриш давомида юзага келадиган барча масалалар бўйича ўз важларини, хулосаларини тақдим қилиш, ишда иштирок этувчи бошқа шахсларнинг илтимосномалари, важларига эътиroz билдириш, суд ҳужжатлари устидан шикоят қилиши;

ўзларига тегишли барча процессуал ҳуқуклардан инсофли равища фойдаланиши, тарафларнинг ўз вакилларига эга бўлиши ва улардан суд ишларини юритишда фойдаланиши;

ҳар бир тараф ўз талаблари ва эътиrozларига асос қилиб келтираётган ҳолатларни исботлаши (Маъмурий органларнинг низолашилаётган ҳужжатларининг, фуқаролар ўзини ўзи бошқариш органлари қарорларининг, улар мансабдор шахслари ҳаракатларининг (ҳаракатсизлигининг) қонунийлигини исботлаш мажбурияти тегишли органлар ва мансабдор шахслар зиммасига юқлатилади);

далиллар тақдим этиш, далилларни талаб қилиб олиш, далилларни таъминлаш тўғрисида ва дастлабки ҳимоя чораларини кўриш тўғрисида судга илтимосномалар киритиш, далилларни суд мажлиси биносида ёки ундан ташқарида текшириш жараёнида, суд музокарасида бевосита иштирок этиш ва бошқа ҳуқуқларини амалга оширишда намоён бўлади.

Шундай экан, суд жараёнида тарафларнинг тортишуви ва тенг ҳуқуқлилигининг таъминланиши, унинг ҳаққоний ва холис ўтказилганлигининг, шу билан бирга, ишни кўриш якунида чиқарилган қарорларнинг қонуний ва асосли бўлишининг муҳим шарти ҳисобланади.

### **Фойдаланилган адабиётлар рўйхати**

1. Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 26.01.2018 й., 02/18/МПК/0627-сон, 13.01.2021 й., 03/21/662/0012-сон).
- 2.
3. Хабибуллаев Д.Ю. Фуқаролик процессуал ҳуқуқининг тамойиллари ва уларни суд амалиётида татбиқ этиш муаммолари. Юрид. фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган автореферат. –Тошкент, ТДЮИ. 2007.
4. Шмавонян Г.А. Конституционное правосудие в системе разделенияластей. М., 2001. С. 149.
5. Е.А. Шилова. Принципы административного судопроизводства. моногр. дис. ... док. юрид. наук. -М ., 2012. С. 118.
6. Панкова О.В. Принципы административного судопроизводства и проблемы их реализации в судах общей юрисдикции // Международный экспертный семинар «Роль административной юстиции в защите правчеловека». М., 2010. С. 77.
7. Власов А.А. Гражданское процессуальное право. Учебник. –М.: Верховный суд Российской Федерации, Высший Арбитражный суд Российской Федерации, Российская Академия правосудия. 2003. -29 с.

# **AYBIGA IQRORLIK TO‘G‘RISIDAGI KELISHUV INSTITUTI JINOYAT VA JINOYAT-PROTSESSUAL QONUNCHILIGINI LIBERALLASHTIRISHNING MUHIM BOSQICHI SIFATIDA**

**Qahhorova Shahzodabonu Tavakkal qizi**  
Toshkent shahar yuridik texnikumi 1-kurs o'quvchisi.  
Telefon: +998974616151

**Annotatsiya:** ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillardagi Jinoyat va Jinoyat-protsessual qonunchiligini liberallashtirish borasida katta qadamlardan biri bo'lgan aybiga iqrorlik to'g'risidagi kelishuv instituti va uning jinoyat ishlarini yuritish hamda shaxsga nisbatan jazo qo'llashga oid munosabatlarga nisbatan ijobjiy ta'siri muhokama qilinadi.

**Kalit so‘zlar:** Jinoyat kodeksi, Jinoyat-protsessual kodeksi, aybiga iqrorlik to‘g‘risidagi kelishuv, jinoyat uchun jazo tayinlash, surishtiruv, dastlabki tergov.

O‘zbekiston Respublikasida so‘nggi yillarda ham Jinoyat va Jinoyat-protsessual qonunchiligini takomillashtirish va demokratik talablarga moslashtirish, ilg‘or xorijiy davlatlar tajribasini o‘rganish hamda maqbul jihatlarni milliy qonunchiligidan qurib oshirilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi va Jinoyat-protsessual kodeksiga yaqinda kiritilgan aybiga iqrorlik to‘g‘risidagi kelishuv ham Jinoyat va Jinoyat-protsessual qonunchiligini liberallashtirish, jinoyat uchun jazo tayinlash, jinoyat ishlarini yuritish tizimini soddalashtirish, xarajatlar va muddatlarni qisqartirish nuqtayi nazaridan muhim bosqich bo‘ldi desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Shu o'rinda aybiga iqrorlik to'g'risidagi kelishuv institutining kelib chiqish tarixiga nazar solsak.

Ushbu institut dastlab AQShda vujudga kelgan bo‘lib, XIX asrda Angliyada ham joriy qilingan.

Hozirda ko‘plab davlatlarda, jumladan, Fransiya, Estoniya, Shotlandiya, Italiya, Gruziya jinoyat-protestual qonunchiliklarida ham aybiga iqrorlik to‘g‘risidagi kelishuv instituti mavjud.

Ayniqsa, AQShda ushbu kelishuv keng tarqalgan bo‘lib, ko‘plab ishlarda qo‘llanilib kelinmoqda.

Italiyada ushbu institut 1980-yillarda joriy qilingan bo‘lib, kelishuv tuzilganda jazo muddati maksimal iazoning 1/3 qismidan kam bo‘lmasa midorgacha kamayishi belgilangan’.

Estoniya jinoyat-protsessual qonunchiligiga ko‘ra, aybiga iqrorlik to‘g‘risidagi kelishuv 4 yildan ortiq bo‘lмаган муддатгача озодликдан махрум қилиш язоси тайланishi mumkin bo‘lgan jinoyatlarni sodir etgan etgan shaxslar bilan tuzilishi mumkin. Bunda jazo muddati maksimal jazo muddatining  $\frac{1}{4}$  qismigacha qisqartirilishi mumkin.

Mazkur institut Rossiya Federatsiyasining Jinoyat-protsessual kodeksiga sudga qadar hamkorlik to‘g‘risida kelishuv tarzida 2009-yilda kiritilgan<sup>2</sup>.

O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 18-fevraldagisi O‘RQ-675-son “O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat hamda Jinoyat-protsessual kodekslariga o‘zgartish va qo‘sishchalar kiritish to‘g‘risida” gi Qonuni bilan JPKga yangi “Aybiga iqrorlik to‘g‘risidagi kelishuv” nomli 62<sup>1</sup>-bob kiritildi.

JKP ning 586<sup>1</sup>-moddasiga muvofiq “aybga iqrorlik to‘g‘risidagi kelishuv jinoyat ishini yuritishni o‘ziga nisbatan qo‘yilgan gumonga, ayblovga rozi bo‘lgan, jinoyatning ochilishiga faol ko‘maklashgan va keltirilgan zararni bartaraf etgan gumon qilinuvchining yoki ayblanuvchining iltimosnomasiga asosan nazorat qiluvchi prokuror bilan ijtimoiy xavfi katta bo‘limgan, uncha og‘ir bo‘limgan va og‘ir jinoyatlar bo‘yicha tuziladigan kelishuvdir.

Ushbu moddaga asosan aybiga iqrorlik to‘g‘risidagi kelishuv quyidagi shartlarga muvofiq bo‘lishi lozim:

- gumon qilinuvchi, ayblanuvchi o‘z harakatlarining mohiyatini, shuningdek o‘zi bergan

<sup>1</sup> Климанова О.В. История и особенности с временного правового регулирования и практики применения аналогов института досудебного соглашения о сотрудничестве в зарубежных странах // Вестник Самарского государственного университета. – 2014. - № 11-2 (22). – См. 273-278.

<sup>2</sup> Уголовно-процессуальный кодекс РФ от 18.12.2001 г. № 174-ФЗ с изм. и доп., вступ. в силу с 01.09.2016 г.) [Электронный ресурс]. - Режим доступа:[http://www.consultant.ru/document/cons\\_doc\\_LAW\\_34481/](http://www.consultant.ru/document/cons_doc_LAW_34481/).



iltimosnomaning oqibatini anglab yetgan bo‘lishi;

- iltimosnoma ixtiyoriy ravishda va ishda ishtirok etayotgan himoyachi bilan maslahatlashuvlar o‘tkazilganidan keyin berilgan bo‘lishi;

- gumon qilinuvchi, ayblanuvchi surishtiruv yoki tergov organi tomonidan qo‘yilgan gumanoni yoxud ayblovni, ish bo‘yicha mavjud bo‘lgan dalillarni, shuningdek yetkazilgan zararning xususiyati va miqdorini inkor etmasligi hamda uni bartaraf etgan bo‘lishi.

JPKning 586<sup>2</sup>-moddasiga asosan gumon qilinuvchi, ayblanuvchi aybga iqrorlik to‘g‘risida kelishuv tuzish haqidagi iltimosnomani surishtiruvning va dastlabki tergovning istalgan bosqichida berishi mumkin.

Kelishuv tuzish haqidagi iltimosnoma gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, uning himoyachisi va, agar ishda qatnashayotgan bo‘lsa, qonuniy vakili tomonidan imzolangan bo‘lishi lozim.

Ushbu moddadan shunday xulosa kelib chiqadiki, aybiga iqrorlik to‘g‘risidagi kelishuv jinoyat ishlarini yuritishning faqat sudga qadar jinoyat ishini yuritish bosqichida – tergovga qadar tekshiruvni istisno qilgan holda surishtiruv yoki dastlabki tergovda tuzilishi mumkin.

Ikkinchchi xulosa, mazkur turdag'i ishlarda himoyachi albatta ishtirok etishi shart. Chunonchi, biz yuqorida keltirib o‘tgan Qonun bilan JPK ning 51-moddasiga kiritilgan o‘zgartirishlarga muvofiq aybiga iqrorlik to‘g‘risidagi ishlar himoyachi ishtirok etishi shart bo‘lgan ishlar tarkibiga kiritildi. Shuningdek, JPK ning 52-moddasi 2-qismiga asosan mazkur holatda himoyachidan voz kechish mumkin emas.

#### **Aybiga iqrorlik to‘g‘risidagi kelishuv institutining jinoyat ishlarini yuritish jarayoniga ta’siri**

Mazkur yangi institut jinoyat ishlarini yuritish bilan bog‘liq munosabatlarga ijobiy ta’sir o‘tkazadi deyishimiz mumkin. Ushbu ijobiy ta’sir, eng avvalo, muddatlar bilan bog‘liqdir.

Bizga ma’lumki, jinoyat ishlari bo‘yicha surishtiruv o‘tkazish muddati 1 oyni tashkil etadi va bu muddat muayyan holatlarda 20 kungacha uzaytirilishi mumkin. Dastlabki tergov muddati esa 3 oy bo‘lib, ayrim holatlarda tegishli tartibga muvofiq 7 oygacha davom etishi mumkin.

Jinoyat ishlarini sudda ko‘rib chiqish muddati esa, surishtiruvdan kelgan ishlar bo‘yicha 1 oyni tashkil etib yana bir oygacha uzaytirilishi mumkin. Dastlabki tergovdan kelgan ishni ko‘rish esa 2 oy davomi ko‘rib chiqilishi lozim bo‘lib, muayyan holatlarda 6 oygacha davom etishi mumkin.

Aybiga iqrorlik to‘g‘risidagi kelishuvning tuzilishi, o‘z navbatida, ushbu muddatlarning qisqarishiga olib keladi.

Bundan tashqari, ayblanuvchilar tomonidan jinoyat ishini tergov qilishga yordam berilishi, dalillar topilishining osonlashishi jinoyat ishlarining to‘planib qolinishiga barham beradi. Shu bilan birga, surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sudyalarining ham vaqtлari tejaladi. Shuningdek, ushbu holatda sarf-xarajatlar ham sezilarli darajada qisqarishi mumkin.

#### **Aybiga iqrorlik to‘g‘risidagi kelishuv tuzishning gumon qilinuvchi va ayblanuvchilarga nisbatan ijobiy ta’siri**

O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksiga yangi kiritilgan 57<sup>2</sup>-moddaga muvofiq aybga iqrorlik to‘g‘risida kelishuv tuzilgan jinoyatlar bo‘yicha tayinlanadigan jazoning muddati yoki miqdori JK Maxsus qismining tegishli muddasida (qismida) nazarda tutilgan eng ko‘p jazoning yarmidan oshmasligi lozim.

Ushbu norma davlatimiz tomonidan jinoyat sodir etgan shaxslarning tuzalishi, to‘g‘ri yo‘lga qaytishi uchun berilgan katta imkoniyat bo‘lib, yuksak insonparvarlik namunasi hisoblanadi.

Mazkur modda asosida jazo tayinlanishi shaxslarning jamiyatga qayta moslashishi, o‘z o‘rnini topishlarida katta rol o‘ynaydi.

Xulosa o‘rnida aytadigan bo‘lsak, ilg‘or xorijiy davlatlar tomonidan ko‘p yillardan beri samarali qo‘llanilib kelinayotgan aybiga iqrorlik to‘g‘risidagi kelishuv institutining jinoyat-protsessual qonunchiligidan kiritilishi milliy qonunchiligidan liberallashtirishda muhim bosqich bo‘ldi.

Ushbu institut, birinchidan jinoyat ishlarini yuritish bilan bog‘liq ko‘plab murakkabliklarni bartaraf qilishi, muddatlarni qisqartirishga xizmat qilishi, sarf-xarajatlarni oldini olishi mumkin bo‘lsa, ikkinchidan jinoyat sodir etgan va qilmishiga chin ko‘ngildan pushaymon bo‘lgan, jinoyat ochilishiga yordam bergen shaxslarga adolatli jazo tayinlashda muhim o‘rin tutadi.



**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat hamda Jinoyat-protsessual kodekslariga o‘zgartish va qo‘sishimchalar kiritish to‘g‘risida”gi Qonuni. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 18.02.2021-y., 03/21/675/0126-son.
2. O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy baza-si, 18.02.2021-y., 03/21/675/0126-son.
3. O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 18.02.2021-y., 03/21/675/0126-son.
4. Уголовно-процессуальный кодекс РФ от 18.12.2001 г. № 174-ФЗ с изм. и доп., вступ. в силу с 01.09.2016 г.) [Электронный ресурс]. - Режим доступа:[http://www.consultant.ru/document/cons\\_doc\\_LAW\\_34481/](http://www.consultant.ru/document/cons_doc_LAW_34481/).
5. Климанова О.В. История и особенности с временного правового регулирования и практики применения аналогов института досудебного соглашения о сотрудничестве в за-рубежных странах // Вестник Самарского государственного университета. – 2014. - № 11-2 (22). – См. 273-278.



## БАЛЛИСТИК ЭКСПЕРТИЗАЛАРДА ЭКСПЕРИМЕНТАЛ ТАДҚИҚОТЛАР.

Усанов Юсуф Мейлиевич

Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси

кундузги таълим 3-ўқув курсининг

"Эксперт-криминалистик фаолият" мутахассислиги

йўналишида таълим олувчи курсант

Телефон: +998973208108

**АННОТАЦИЯ:** Мақолада баллистик экспертизаларнинг келиб чиқишининг назарий асослари ва эксперталар томонидан маҳсус лабораторияларда ўтказилиши мумкин бўлган экспериментал тадқиқотларнинг таркибий қисмлари ва уларнинг хуносаларни шакллантиришдаги муҳим жиҳатлари очиб берилган.

**КАЛИТ Сўзлар:** ўқотар қуроллар, ўқ-дорилар, эксперт, тадқиқот, обьект, эксперт хуносаси, баллистика, порох газлари, мил оғзи, эксперимент.

Маълумки, суд-баллистика экспертизаси умумий криминалистик экспертизаларнинг маҳсус ва муракаб турларидан бири бўлиб, ишлатилган ва ишлатилмаган ўқотар қуроллар, ўқ-дорилар, уларнинг қисмлари, ўқ отилиш излари – ёриқлар, тирналишлар, езилишлар, яқин масофадан ўқ отилиш излари (порох газлари, мил оғзи оловининг механик ва термик (иссиқлик) таъсиrlари, қурум, металл, ёнмаган порох зарраларининг ўтириб қолиши, мил мойлаш материалларининг қолдиқлари (маҳсулотлари) унинг обьектларини ташкил қиласди.

Судга оид баллистиканинг вужудга келиши ижтимоий-тарихий ва илмий-техник шаротлар билан боғлиқ. Кишилик жамиятининг муайян бир босқичида ўқотар қурол деб атaluвчи техник восита яратилган ва бу восита нафақат ҳарбий ҳаракатлар ва ов қилишда, балки ноқонуний тарзда, яъни жиноят қуроли ёки жиноят содир этиш воситаси сифатида ҳам қўлланилган. Табиийки, бунинг оқибатида, ўқотар қурол ишлатиб содир этилган жиноятларга қарши курашиб зарурияти келиб чиқкан. Бу каби жиноятларнинг миқдорий миқёси, шунингдек, уларнинг хавфлилик даражасининг баҳолаш билан боғлиқ, турли давлатларда турли вақтларда уларнинг олдини олиш, бартараф этиш мақсадида уларга нисбатан хукукий ҳамда техник чора- тадбирлар кўзда тутила бошланган.

Баллистика соҳасидаги билимларига бўлган талаоб ўқотар қуроллар ихтиро қилинган вақтларда ёқ келиб чиқкан, чунки қуроллар ихтиро қилиниши билан бирга баданга эҳтиётсизлик натижасида ва қасдан шикаст етказиш ҳоллари вужудга кела бошлаган.

Ўқотар қуролни отилган ўқлардаги изларга кўра идентификация қилишда ўтказиладиган эксперт эксперименти ушбу алоҳида тадқиқотлар босқичининг ажралмас ва мажбурий бир босқичи хисобланади. Унинг асосий мақсади таққослаш тадқиқотлари учун экспериментал намуналар олишдир. Эксперт эксперимент жараёнида алоҳида изларнинг ҳосил бўлиш механизми, ўқлардаги изларнинг барқарорлик ва вариациялилик даражаси аниқланади.

Эксперт экспериментларини ўтказишдан олдин тақдим этилган қуролни ва ўқ-тутгични экспериментлар учун тайёрланади, ўқ отишларни амалга ошириш учун патронлар танланади.

Қуролни экспериментлар учун тайёрлашда унинг ўқ отишлар учун хала берадиган носозликлари бартараф этилади. Бунинг учун ўқотар қурол қисман ёки зарурат бўлса тўйқ қисмларга ажратилади. Бунда қуролнинг из ҳосил қилувчи қисмлари хеч қандай ўзгаришларга учрамаслиги муҳим.

Агар қурол тадқиқотга бузилган қисмлари билан ёки ўқ отилиши учун зарур бўлган айрим қисмлари етарли бўлмаган ҳолатда тақдим этилган бўлса, қуролнинг бундай қисмларини, айнан шу қурол билан бир тизим, русум ва намунадаги бошқа қуролларнинг қисмлари билан алмаштирилади. Қуролни таъмирланганлги ва алоҳида қисмларининг алмаштирилганлиги экспертиза хуносасида баён этилади.

Қурол стволи каналини экспериментал ўқ отишларига тайёрлаш алоҳида эътибор талаб қиласди. Қурол стволи канали қурум ва тасодифий ифлосланишлардан тозаланиши керак (айрим ҳолларда экспериментал ўқ отишларини қурол стволи тозаланишидан олдин ҳам, кейин ҳам ўтказиш лозим. Чунки, шунда қурол стволи тозаланишидаги ўзгаришлар эксперимент натижаларига таъсир қилмаганлигини билиш мумкин бўлади).



Агар, тақдим этилган қуролдан ўқ отилиши вақтида мойланганлиги маълум бўлса (масалан, ҳодиса содир бўлган жойни кўздан кечириш баённомасидан), экспериментал ўқ отишларидан олдин қуролни мойлаш керак бўлади.

Патронларни экспериментал ўқ отишларига тайёрлаш уларни танлаб олиш ва ишлов беришдан иборат. Экспериментлар учун танланган патронлар ўқларининг қобиги маериални, бошчасининг ва асоси (қобикли ўқлар учун)нинг шаклига кўра текширилаётган ўқ билан бир хил бўлиши лозим. Имкони борича патронлар (текширилаётган ўқ тегишли бўлган ва экспериментда ишлатилаётган)нинг ишлаб чиқарган корхона–заводи ва ишлаб чиқарилган иили, серияси ёки партияси ҳам бир хил бўлиши лозим.

Экспериментлардан сўнг, ўқларни текшириш осон ва қулай бўлиши учун, экспериментда ишлатиладиган патронларга алоҳида белги (ўқ ва гильзани туташтирувчи ёки гильзанинг тубига чизиқ тортиш йўйи билан) кўйиш керак. Эксперимент ўтказиш учун чизиқ тортилган патронларни барчасини, қуролга ушбу чизиқлар бир томонга (масалан факат юкорига) қараб турадиган қилиб жойлаштириш лозим. Бундай белгилаш таққослаш тадқиқотларини ўтказишда, ўқларда қуролнинг нарезлар майдонларидан қоладиган изларни тез топиш имконини беради.

### **Фойдаланилган адабиётлар**

1. Ўзбекистон Республикаси ИИВнинг 2017 йил 18 июнь кунги “Эксперт-криминалистика бўлинмалари иш фаолиятини ташкил этиш тўғрисидаги йўриқномани тасдиқлаш хақида”ги 108-сонли бўйруғи.
2. Аверьянова Т.В., Белкин Р.С., Корухов Ю.Г., Россинская Е.Р. Криминалистика. Учебник для вузов. Под ред. Заслуженного деятеля науки Российской Федерации, профессора Р. С. Белкина. –М.: Издательство НОРМА- 2018.[http://vuzirossii.ru/index/uchebnik\\_dlja\\_vuzov\\_kriminalistika\\_averjanova\\_t\\_v\\_belkin\\_r\\_s\\_korukhov\\_ju\\_g\\_rossijskaja\\_e\\_r/0-4](http://vuzirossii.ru/index/uchebnik_dlja_vuzov_kriminalistika_averjanova_t_v_belkin_r_s_korukhov_ju_g_rossijskaja_e_r/0-4)
3. Судебная экспертиза: российский и международный опыт : материалы IV Междунар. науч.-практ. конф., г. Волгоград, 2018 г. <http://www.volstu.ru>
4. Антропов А.В., Бахтеев Д.В., Катанов А.В. Криминалистическая экспертиза: Учебное пособие-М.:Юрайт, 2018 <https://books.google.co>
5. <http://akadmvd.uz> (Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси).



## DAVLAT BOSHQARUVI ORGANLARINI OPTIMIZATSİYALASH SOHASIDA XORİJIY TAJRIBANING O'ZBEKİSTONDA TATBIQ ETİLISHI MASALALARI

**Sharipov Shaxzod Shuhratovich**

Toshkent davlat yuridik universiteti

Davlat boshqaruvi huquqi magistranti

Telefon: +998 (91)447 40 70

**Anotatsiya:** Bu maqolada davlat boshqaruvi organlarining faoliyatini optimizatsiyalashning muhimligi yotritilgan. Xorijiy mamlakatlarning davlat boshqaruvi sohasini optimizatsiyalash borasida o'tkazgan islohotlari tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** davlat, optimizatsiyalash, xorijiy tajriba, milliy amaliyot, boshqaruvi organlar.

Barchamizga ma'lumki, vaqt bir yerda to'xtab turmaydi. Shu sababli ham, boshqa sohalar singari davlat boshqaruvi organlarida ham jamiyat va davlatning ehtiyojiga qarab islohotlar o'tkazilishi tabiiy jarayondir. Shu bois mamlakatimiz ham davlat boshqaruvi sohasida ko'plab islohotlarni amalgaga oshirib kelmoqda. Tarixga nazar tashlaydigan bo'lsak, mustaqillikka erishgandan so'ng, sobiq sovet davrida tuzilgan davlat boshqaruvi organlari birinchi navbatda tugatildi. Mustaqil demokratik davlatga xos bo'lgan davlat boshqaruvi organlari tuzildi.

Xorijiy mamlakatlarning ko'pchiligidagi XX asr oxiri hamda XXI asr boshlarida ma'muriy islohotlar amalgaga oshirildi. Axborot – texnologiyalarning rivojlanishi, globallashuv sharoitida xorijiy mamlakatlarning davlat boshqaruvi sohasida ham ko'plab o'zgarishlar amalgaga oshirildi hamda hozirgi kunda ham amalgaga oshirilib kelmoqda.

Ilmiy adabiyotlarda davlat boshqaruvi sohasidagi islohotlarning turli xildagi ko'rinishlarini ko'rib o'tishimiz mumkin: boshqaruvi sohasida samaradorlikni oshirish; davlat boshqaruvi sohasida raqobatni kuchaytirish; nomarkazlashtirish va boshqalardan iborat.

Ko'plab mamlakatlarning ijro hokimiyatida o'zgarishlar va islohotlar amalgaga oshirilgan. Hech bo'lmaganda biror – bir vazirlilikning funksiyasi, nomi yoki xodimlar sonida o'zgarishlar amalgaga oshirilgan. Bir necha tendensiyalar oqibatida bular yuz bergan deya olamiz.

Ilmiy adabiyotlarda xorijiy davlatlarning davlat boshqaruvi sohasida o'tkazgan islohotlarining konsepsiysi hamda turli modellari mavjud.

Shunday modellardan biri, Buyuk Britaniyada M.Tetcherning bosh vazirligi davrida joriy qilingan edi. Unga ko'ra, xususiy sektor iste'molchiga xizmat ko'rsatish, aholiga xizmat qilishda davlatga raqobatchi sifatida jalb etilgan. Bu albatta, davlat boshqaruvini erkinlashtirilishi hamda hajm va sohalarning qisqartirilishini anglatadi.

Bu model ko'pgina xorijiy mamlakatlarda o'tgan asrning XX yillarda joriy qilindi. Davlatning ayrim bir funksiyalari, mustaqil agentlik, boshqaruvi korporatsiyalari hamda boshqa tashkilotlarga o'tkazildi. Bundan tashqari ular orqali kam samara beradigan mahalliy organlar ham faoliyati tugatildi.

Nomarkazlashtirilgan tashkilotlar vazirliklar yordamida tashkil etildi. Ular davlat boshqaruvi va xo'jalik organlarining vazifasini bajardi. Ularning yana bir afzallik tomoni shunda ediki, ular bozor talablariga tez moslasha olar hamda jismoniy va yuridik shaxslarga samarali davlat xizmatlarini ko'rsatishar edi.

Bunday modellardan yana biri hozirgi kunda roman – german mamlakatlarining ko'pchiligidagi amal qiladi. Jumladan, Germaniya davlatini misol qilib olishimiz mumkin. Bu modelga muvofiq yuqori turuvchi boshqaruvchi tuzilma tomonidan quyi tuzilmalar uchun keng imkoniyatlar yaratib beradi va o'zida faqatgina quyi turuvchi bo'g'inlar amalgaga oshira olmaydigan vakolatni qabul qilishi mumkin. Bu modelda huquqlar pastdan yuqoriga qarab topshiriladi, ya'ni shaxs o'zining tashabbuslari bilan o'zini – o'zi boshqaruvi organiga – undan hududiy organlarga va hokazo. Albatta bu model nisbatan barqaror jamiyatlarga xos, chunki u ishlashi uchun huquqqa hurmat, qonunga itoatkorlikning yuqori darajasi va boshqa holatlar majmui talab etiladi.

Huquqshunos olima S.M.Adilxodjayeva O'zbekiston Respublikasida davlat boshqaruvi organlari tizimini takomillashtirish ikki bosqichda bo'lganligini qayd etadi. Jumladan, birinchi bosqich 1991- 2000- yillarni qamrab olgan bo'lib, bu bosqichda milliy davlatchilik asoslarini shakkantirish, dastlabki islohot va o'tish davri o'zgarishlarini tashkillashtirish amalgaga oshirildi. Davlat boshqaruvi organlari tizimini takomillashtirishga qaratilgan islohotning ikkinchi bosqichi



2001 – yildan boshlanadi.

Xulosa qilib aytganda, xorijiy mamlakatlarning tajribasini o‘rganish biz uchun juda muhim. Chunki, xorijiy davlatlarning davlat boshqaruvi organlarini optimizatsiyalash sohasida to‘plagan tajribasini o‘rganish orqali ularning samarasiz bo‘lgan tomonlarini ko‘rish hamda yutuqlarini o‘zlashtirishimiz mumkin. Shu bilan birgalikda davlat boshqaruvi tizimini optimizatsiyalash istiqbolini mazkur tizimga bevosita ta’sir qiluvchi omillarni inobatga olish lozim bo‘ladi, zero, bu borada tizimlilikka rioya qilmaslik samarasiz va o‘zini oqlamagan tizimni yuzaga kelishiga sabab bo‘lishi mumkin.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. С.М.Адилходжаева. Глобализация и стратегия государства. Ташкент, 2007, 109-110 с.
2. Штатина М.А. Зарубежный опыт проведения административных реформ // Административная реформа в России. М.: «Контракт» - «Инфра-М», 2006. С. 60-64.
3. Н.И.Глазунова. Государственное (административное) управление. Учебник. Москва, 2006, 48 ст.



## БОЛАНИНГ ТАЪМИНОТИ УЧУН АЛИМЕНТ ТЎЛАШ МАЖБУРИЯТЛАРИ

Балтабаева Жадра Рустамовна  
Судьялар Олий мактаби тингловчиси  
Телефон: +99891 3901082  
jadra.baltabaeva.82@bk.ru

**Аннотация:** мақолада боланинг таъминоти учун алимент тўлаш мажбуриятларига оид низолар, уларни вужудга келиш сабаблари ва оқибатлари, алимент тўлаш ва ундириш хусусиятлари, алиментга оид суд қарорлари ижросини таъминлаш масалалари ҳақидаги фикрлар ва таклифлар ўрин олган.

**Калит сўзлар:** Конституция, бола ҳуқуқлари, алимент, моддий таъминот, ихтиёрий тўлаш, келишув битими, суднинг ҳал қилув қарори, суд буйруғи, ихтиёрий ижро, мажбурий ижро, ижро ишини тугатиш.

Болаларнинг манфаатлари, уларнинг тарбияси, таълим олиши, таъминоти ҳар доим давлатимиз ҳимоясида бўлиб келган ва муҳим аҳамият касб этган. Ўзбекистон Республикаси Конституциясида оила, болаларнинг ҳуқуқий ҳимояси масалаларида эътибор қаратилган бўлиб, унинг 63-моддасида оила жамиятнинг асосий бўғинидир ҳамда жамият ва давлат муҳофазасида бўлиш ҳуқуқига эга эканлиги эътироф этилган.

Шу билан биргаликда, Конституциянинг 64-моддасида ота-оналар ўз фарзандларини вояга етгуналрига қадар бокиши ва тарбиялашга мажбур эканликлари мустаҳкамланган.

Ўз навбатида Ўзбекистон Республикасининг “Бола ҳуқуқининг кафолатлари тўғрисида”ги Қонуни 4-моддасида боланинг ҳуқуқлари, эркинликлари ва қонуний манфаатларини таъминлаш бола ҳуқуқларини ҳимоя қилиш бўйича давлат сиёсатининг асосий йўналишларидан бири сифатида белгилаб қўйилган.

Аввало таъкидлаш лозимки, қонунчиликда, хусусан, Ўзбекистон Республикасининг “Бола ҳуқуқларининг кафолатлари тўғрисида”ги Қонуни 4-моддасида бола тушунчасига таъриф берилган бўлиб, унга кўра “бола (болалар) - ўн саккиз ёшга тўлгунга (вояга етгунга) қадар бўлган шахс (шахслар)” эканлиги тушунтирилган.

Юқоридагилардан мамлакатимизда боланинг моддий таъминоти масаласига қонунчиликда алоҳида эътибор қаратилганлиги, бола ҳуқуқлари, эркинликлари ва қонуний манфаатларини таъминлаш масалалари ушбу йўналишда давлат сиёсатининг асосий йўналишларидан бири сифатида эътироф этилганлиги кўринади.

Ўзбекистон Республикаси Оила кодексининг 96-моддасида кўрсатиб ўтилган. Ота-онанинг вояга етмаган болага алимент тўлаш мажбурияти унинг болага нисбатан ғамхўрлик кўрсатиш шакли ҳамда моддий жиҳатдан таъминлаш мажбурияти саналади.

Алимент “alimentum” сўзидан олинган бўлиб, “озик-овқат, таъминот” деган маъноларни англатади. Алимент - вояга етмаган болаларни мулкий ҳуқуқларидан бири, яшаш манбаи, таъминот шакли саналади. У болаларнинг ота-онаси ўзаро никоҳда ёки никоҳда турмаслигидан, шунингдек никоҳи ҳақиқий эмас деб топилишидан қатъий назар тўланади. Факат боланинг туғилганлик тўғрисидаги гувоҳномасида алимент тўловчи ота-она сифатида кўрсатилган ёки болага нисбатан оталик белгиланган бўлиши лозим.

Ўзбекистон Республикасининг Оила кодексида алимент ундиришнинг уч тартиби мавжуд бўлиб, алимент тўлаш тўғрисида келишув тузиш, алиментни ихтиёрий тўлаш, алиментларни суд тартибида ундириш ҳисобланади. Ушбу фарқлар қонунчиликда аниқ белгиланган бўлиб, дъявогар ва жавобгарга танлаш имкониятини беради.

Ота-онанинг вояга етмаган меҳнатга лаёқатсиз, ёрдамга муҳтоҷ болаларига таъминот бериш мажбурияти асосий мажбуриятлардан ҳисобланади. Қоидага кўра, ушбу мажбуриятни ихтиёрий бажармаган ота (она)дан суднинг ҳал қилув қарорига ёки суд буйруғига асосан алимент ундирилади.

Таъкидлаш жоизки, бола ҳуқуқлари ва алимент ундириш билан боғлиқ фуқаролик ишлар бўйича суд амалиётининг таҳлили шуни кўрсатадики, фуқаролик ишлари бўйича судларида фуқароларнинг оворагарчиликларнинг кўпайиши, судьяларнинг битта алимент ундириш ҳақидаги ариза бўйича уч маротаба суд ҳужжати қабул қилиниши (*суд буйруғи, уни бекор қилиши ҳақидаги ажрим ва ҳал қилув қарори*) кўрилаётган фуқаролик ишларининг



сонининг асоссиз кўпайишига ҳамда алимент ундириш ҳақидаги суд ҳужжати чиқаришда суд ҳаражатларини ундириш амалиётининг бир хил эмаслиги ҳолатлари мавжуд эканлиги аниқланди.

Амалдаги қонунчиликка биноан вояга етмаган ёки меҳнатга лаёқатсиз шахсларни, шунингдек, ота-онаи моддий таъминлашдан (алимент тўлашдан) бўйин товлаганлик учун маъмурий жавобгарлик жорий этилган. Ушбу ҳуқуқбузарлик учун ўн беш сутка муддатга маъмурий қамоқقا олишга ёки маъмурий қамоқ қўлланилиши мумкин бўлмаган шахсларга энг кам иш ҳақининг 20 баравари микдорида жарима назарда тутилган. Аммо амалиёт бундай маъмурий жазо чоралари етарли даражада самарали эмаслигини кўрсатмоқда. Чунки, биринчидан, кўп ҳолатларда ҳуқуқбузарларнинг тайинланган жаримани тўлашга имконияти бўлмайди. Иккинчидан эса, маъмурий қамоқقا олиш чораси алимент қарздорлигини бартараф этишга ёрдам бермайди. “Маъмурий қамоқни ўташ тўғрисида”ги қонунга кўра, бундай шахслар пул тўланадиган ишларга фақатгина ўзининг ёзма розилиги асосидагина жалб қилиниши мумкин. Ўзбекистон Республикасида мажбурий жамоат ишлари жиноий жазо тури сифатида қўлланилади. Бунда маҳкум ҳақ тўланмайдиган фойдали жамоат ишларини бажаришга мажбурий тарзда жалб қилинади. Маъмурий жавобгарлик тўғрисидаги кодексда эса мажбурий жамоат ишлари каби жазо чораси белгиланмаган.

Тадқиқот натижасида Ўзбекистон Республикасида ота-она вояга етмаган болаларга алимент тўлаш учун етарли маблағ бўлмаган тақдирда давлат томонидан маҳсус ижтимоий фонд ташкил қилиниши ва ушбу маҳсус фонд маблағларидан ундирилиши, давлат қарздорни ишга жойлашишига кўмаклашиши, кейинчалик эса қарздордан давлат ижтимоий ҳимоя фондига ундириш белгиланишини мақсадга мувофиқ бўлар эди.

Ҳар бир ота-она фарзандларининг таъминоти учун алимент тўлаш мажбуриятини, уни тўлашдан ҳеч бир ота-она бош тортиши мумкин эмаслигини унутмаслиги лозим.

#### **Фойдаланилган адабиётлар :**

1. Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. –Тошкент: Ўзбекистон, 2019.
2. Ўзбекистон Республикасининг Фуқаролик процессуал кодекси. – Тошкент: Адолат, 2018.
3. Ўзбекистон Республикасининг Оила кодекси. – Тошкент: Адолат, 2018.
4. Ўзбекистон Республикасининг “Бола ҳуқуқларининг кафолатлари тўғрисида”ги Конуни.
5. Ўзбекистон Республикаси маъмурий жавобгарлик тўғрисидаги кодекси. – Тошкент: Адолат, 1994.



## ФУҚАРОЛИК ҚОНУН ҲУЖЖАТЛАРИГА МУВОФИҚ МАЖБУРИЙ ШАРТНОМА ТУЗИШНИНГ МОҲИЯТИ ВА УМУМИЙ АСОСЛАРИ

Абдуллаев Нурулла Абдулла ўғли  
Ўзбекистон Республикаси Судъялар  
олий кенгаши хузуридаги  
Судъялар олий мактаби тингловчиси  
телефон: +99899-470-00-77

**Аннотация:** мақолада мажбурий равишда шартнома тузишнинг назарий асослари, тартиби, шартлари, моҳияти, хорижий ва маҳаллий олимларнинг бу борада олиб борган тадқиқотлари кўриб чиқилган.

**Калит сўзлар:** шартнома, тарафлар, мажбурий шартнома, оферта, акцепт, қишлоқ хўжалиги шартномаси ва контрактация шартномаси.

Амалдаги қонун ҳужжатлари моҳиятидан англашилишича тарафлар ўртасида шартнома тузишга мажбурлашга йўл қўйилмайди. Бироқ, Фуқаролик қонун ҳужжатларида назарда тутилган ҳолда мажбурият олинган бўлса, давлат ва жамият манфаатига дахлдор муайян соҳани ривожлантириш эҳтиёжи, мамлакатнинг иқтисодий ва озиқ-овқат хавфсизлигини таъминлаш зарурати, мудофаа мақсадларини амалга ошириш йўналишида мажбурий шартнома тузилиши назарда тутилиши мумкин.

Моҳиятидан амалдаги тартибга зид кўринган мазкур ҳолат айрим турдаги фаолиятни амалга оширадиган хўжалик юритувчи субъектлар ўртасида қўлланилади. Масалан, қишлоқ хўжалиги маҳсулотини етиштирувчи – фермер хўжаликлари ва уни қайта тайёрловчилар ўртасида, энергия ишлаб чиқарувчилар ва истеъмолчилар ўртасида, яъни айрим монопол субъектлар ва уларнинг истеъмолчилари ўртасида юзага келмоқда.

Мажбурий шартнома тузишга мажбурлаш аввало муайян фаолият тури билан шуғулланётган шахсга, шундай фаолиятни амалга оширишни бошлашдан олдин маълум бўлади. Масалан, фермер хўжалиги сифатида танлов иштирок этаётган шахс танловда голиб бўлиб, фермер хўжалиги ташкил этиб қишлоқ хўжалиги маҳсулотини етиштириш билан шуғулланса, тегишли турдаги қишлоқ хўжалиги маҳсулоти бўйича тайёрловчилар билан мажбурий тартибда шартнома тузишни олдиндан билади ва унга ер шу шарт асосида ажратиб берилади.

Фуқаролик кодексининг 377-моддасида шартнома тузиш мажбурий ҳисобланган иккита ҳолат, яъни оферта йўлланган томоннинг шартнома тузишга мажбур ҳисобланган ва оферент учун шартнома тузиш мажбурийлиги қайд этилган.

Шартнома тузиш оферта (шартнома лойиҳаси) йўлланган томон учун мажбурий бўлган ҳолатда, бу тараф ўттиз кун ичida бошқа тарафга тегишли хабарномани юбориши шарт. У кўйидаги кўринишларда бўлиши мумкин:

1. Акцепт тўғрисидаги хабарнома. Оферент уни олган пайтдан бошлаб шартнома тузилган ҳисобланади.

2. Акцептдан бош тортиш тўғрисидаги хабарнома. Бу оферта йўлланган тараф шартнома тузишдан бош тортишини билдиради, бу ўз навбатида оферентга шартномани мажбурий тузиш масаласида судга мурожаат қилиш хуқуқини беради.

3. Акцепт орқали офертада таклиф этилган шартлардан бошқача шартлар асосида тузиш талабини қўйиш. Бироқ бундай хабарнома Фуқаролик кодексининг 375-моддасида келтирилган қоидадан фарқли равишида, акцепт тузилганлигини билдиради. Бу ҳолда шартноманинг имзоланган лойиҳаси билан оферентга келишмовчиликлар баённомаси хам кўшиб юборилади.

Шартномани тузишда офертани (шартнома лойиҳасини) йўллаган тараф учун мажбурий бўлган ҳолатда, бошқа томон бунга жавобан шартнома лойиҳасига келишмовчилик баённомасини жўннатиши мумкин. Келишмовчилик баённомаси ўттиз кун ичida юборилиши шарт. Бундай ҳолатда оферент келишмовчилик баённомаси олганидан кейин ўттиз кун ичida қандай қарорга келганлиги тўғрисида хабардор этиши лозим бўлади.

Ушбу жараёнда шартнома келишмовчилик баённомаси асосида қабул қилинади ёки келишмовчилик баённомаси асосида рад этилиши мумкин.



Шунга эътибор бериш лозимки, мажбурий тартибда шартнома тузиш таомилига оид муддатлар диспозитив хусусиятга эга. Қонун хужжатлари билан бошқача муддатлар ҳам ўрнатилиши ёки тарафларнинг келишуви билан (масалан, офертада ёки унга берилган жавобда) белгиланиши мумкин.

Агар шартнома тузиши мажбурий бўлган тараф уни тузишдан бўйин товласа, у бошқа тарафнинг даъвоси асосида суд карори билан шартномани тузишга мажбур қилиниши мумкин. Бўйин товлаган тарафга бошқа салбий оқибатлар ҳам келиб чиқади. У бошқа тарафга бўйин товлаш туфайли етказилган зарарни қоплаб бериши зарур. Фуқаролик кодексининг 14-моддасига мувофиқ, агар қонун ёки шартномада зарарни камроқ миқдорда тўлаш назарда тутилмаган бўлса, ҳукуки бузилган шахс ўзига етказилган зарарнинг тўла қопланишини талаб қилиши мумкин.

Мутахассисларнинг фикрича, келишмовчиликлар баённомаси оферта, эмас акцепт ҳисобланади. Чунки бу шартнома тузишга янги таклиф вазифасини ўтайди.

Мажбурий тартибда шартнома тузиш, яъни оферта (шартнома лойихаси) юборган тараф учун шартнома тузиши мажбур бўлган ҳолларга мисол сифатида давлат эҳтиёжлари учун товарлар етказиб бериш шартномасини кўрсатиб ўтиш мумкин.

Хўжалик шартномасини мазкур турини тузиш асослари ва тартиби ўзига хослиги билан ажralиб туради. Ушбу масалаларни таҳлил қилиб, Ҳ.Ҳ.Маҳмудов қўйидаги фикрларни билдиради: давлат эҳтиёжларини товарлар билан таъминлаш учун тегишли давлат бошқарув органлари томонидан тузилган ва Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси томонидан тасдиқланган давлат буюртмаси давлат контрактини тузиш учун асос ҳисобланади.

М.П.Қаландарованинг фикрича мажбурий шартнома тузиш юқори турувчи органларнинг маъмурий фаолияти шартномалар доирасида амалга оширилиши мумкин. Маъмурий бўйсунув асосида вужудга келадиган мажбуриятларни ижро этиш давлат контрактларини тузишда муҳим аҳамиятга эга. Бунда бошқарув тизимининг юқори турувчи бўғинлари билан шартномалар тузилди-ю, лекин шартномани уларга бўйсунувчи ташкилотлар ижро этадилар. Бу турдаги шартномавий алоқаларнинг тузилиши иқтисодий ислоҳотлар тамоилларига қарама-қаршидир.

Мазкур фикрга кўшилган ҳолда, таъкидлаш зарурки, мажбурий шартнома тузиш амалиёти бозор муносабатлари шароити ўз-ўзидан барҳам топадиган амалиёт бўлиши лозим. Бунда кейинги йилларда фаол қўлланилиб келинаётган кластер усулида хўжалик фаолиятини юритиш, давлат ва хўжалик юритувчи субъектлар ўртасида биргаликда шериклик муносабатларини йўлга қўйиш мақсадга мувофиқдир. Шу муносабат билан фикримизча, ФКнинг 377-моддасини чиқариб ташлаш, унинг ўрнига биргаликда фаолият юритишга қаратилган шартномаларга оид умумий қоидаларни шакллантириш зарур.

Фуқаролик кодексининг 377-моддаси “Биргаликда фаолият юритишга оид шартномаларни тузиш” деб номланashi ва унда биргаликда фаолият юритишга оид шартномалар иштирокчилар томонидан тегишли йиғилиш ўтказиш ўйли билан тузилиши, унда йиғилиш баённомаси ва қарорлар шартномага иловаси сифатида киритилиши, шартнома тузиш ва унинг шартлари кўпчилик овоз билан қабул қилиниши каби жиҳатлар белгиланиши мақсадга мувофиқ

Мажбурий шартнома тузишда ушбу тоифадаги шартномаларнинг таркибий қисми бўлган қишлоқ хўжалиги шартномаларининг ўзига хослиги намоён бўлмоқда.

Бу борада тадқиқот олиб борган К.О.Синдоровнинг фикрича, қишлоқ хўжалиги соҳасида тузилаётган шартномаларнинг ўзига хос хусусиятларидан бири оферта (шартнома лойихаси) йўллаган тараф учун шартнома тузишнинг мажбурийлиги ва Фуқаролик кодексининг 354-моддасида кўзда тутилган шартнома тузиш эркинлиги тамойилининг айrim жиҳатлари амал қилмаслиги, яъни чекланганлиги билан ҳам бундай шартномалар алоҳида ҳарактерланади.

Хулоса ўрнида, қайд этиш лозимки, мажбурий равишда шартнома тузиш моҳияти қонун хужжатларида назарда тутилган асослар бўлганда айrim устувор соҳаларни ривожлантириш, давлатнинг аграр, озиқ-овқат ва мудофаа сиёсатини амалга ошириш йўналишида юзага келиши мумкин.

Бироқ, амалдаги қонунчиликда белгиланган мажбурий шартнома тузиш амалиёти бугунги кун талаблари ва рақобат ҳамда талааб ва таклиф қонуниятларидан келиб чиқиб либераллаштирилишни талаб этади. Бунда иқтисодий муносабат иштирокчиларига



нисбатан мажбурий шартнома тузиш талабини белгилаш ўрнига биргалиқда фаолият, давлат-хусусий шериклик каби конструкциялардан кенгрөк фойдаланиш ва бу борадаги қоидаларни қонунчиликда ифодалаш мақсадга мувофиқдир.

**Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:**

1. Ўзбекитон Республикаси Фуқаролик кодексига шарх. Т.1. – Тошкент: Baktria-Press, 2010. – 675 б
2. Раҳмонқулов Ҳ.Р. Олди-сотди шартномаси. – Тошкент: Адолат, 2000.
3. Маҳмудов Ҳ.Ҳ. Бозор иқтисодиёти шароитида давлат эҳтиёжлари учун товарлар етказиб беришнинг хуқуқий муаммолари: юрид. фан. номз. дис. ... автореф. – Тошкент: 2002. – 17 б.
4. Қаландарова М.П. Бозор иқтисодиёти шароитида давлат эҳтиёжлари учун пурдат ишларини бажаришнинг хуқуқий муаммолари: юрид. фан. номз. дис. ... автореф. – Тошкент: 2011. – 13-14 б.
5. ФКнинг 53-бобида белгиланган оддий ширкат тушунилмаслиги лозим. Бу ўринда кластер фаолияти ва шунга монанд фаолиятни амалга оширишга доир шартномаларни тузишга оид қоидалар назарда тутилмоқда.
6. Синдоров К. Қишлоқ хўжалиги соҳасидаги шартномалар. – Тошкент: Янги аср авлоди, - 51-55 б.
7. Брагинский М.И., Витрянский В.В. Договорное право. Общие положения.
8. Комментарий к Гражданскому кодексу Российской Федерации, части первой (постатейный) / Под ред. О.Н. Садикова, 2005



## ПРАВОВОЙ РЕЖИМ ИНОСТРАННЫХ ИНВЕСТИЦИЙ В УЗБЕКИСТАНЕ

**Сайдмавлонова Гуласалхон Сайдакрамхон кизи**  
Магистрант по направлению «Международное бизнес-право»  
Университет мировой экономики и дипломатии

**Аннотация:** Решение иностранных инвесторов инвестировать в ту или иную страну зависит в большей степени от правовой системы и правового режима той страны-реципиента, которые особенно влияют на инвестиционный климат страны. Данная статья посвящена защите иностранных инвестиций в Республике Узбекистан с учетом действующего правового режима инвестиций.

**Ключевые слова:** национальный режим, режим наибольшего благоприятствования, справедливый и равноправный режим, режим недискриминации

С момента независимости в течение довольно долгого времени Республика Узбекистан считалась относительно закрытой страной для внешнего мира. Новая внешняя политика Узбекистана с 2016 года, напротив, характеризуется стремлением к большей открытости, расширением международного сотрудничества и интеграции, а также стимулированием потока иностранных инвестиций в страну.

С целью привлечения иностранных инвестиций, в Узбекистане был принят ряд мер, стратегий и государственных программ, регулирующих объем и сферу инвестиций, были созданы 22 особых экономических зоны<sup>1</sup>, в которых условия для иностранных инвестиций стали более благоприятными, чем на других территориях. С целью создания более благоприятного климата для иностранных инвестиций, Узбекистан заключил более 50 двусторонних инвестиционных договоров с ведущими экономическими центрами мира по улучшению инвестиционных условий<sup>2</sup> и множество региональных, многосторонних договоров<sup>3</sup>. Можно сказать, что в Узбекистане установлен эффективный режим для иностранных инвесторов. Итак, какие же условия предоставляются инвесторам в Узбекистане? Каков правовой режим иностранных инвестиций?

### **Стандарты правового режима иностранных инвестиций**

Сам термин «правовой режим» можно обозначить как совокупность правил и условий для инвестора, устанавливаемых государством. Стандарты, установленные в сегодняшних инвестиционных правилах, которые вытекают из исторической практики коммерческих отношений, включают национальный режим, режим наибольшего благоприятствования, справедливый и равноправный режим, режим недискриминации, режим транспарентности. Национальный режим и режим наибольшего благоприятствования являются относительными режимами, поскольку они относятся либо к внутренней правовой системе соответствующей договаривающейся стороны, либо к договору с третьей страной и не содержат каких-либо независимых положений. Напротив, другие цитируются как абсолютные режимы и действуют как обычные правила, не требующих особого договорного закрепления. Но, в большей степени, два или три стандарта режима могут быть определены как одновременно действующие.

Особо важными режимами в международном инвестиционном праве считаются принципы Всемирной торговой организации, которые снимают с иностранных инвестиций определенное бремя (Соглашение по инвестиционным мерам, связанным с торговлей (TRIMs) и Генеральное соглашение по торговле услугами (GATS)) и гарантируют защиту более высокого уровня (Соглашение по торговым аспектам прав интеллектуальной собственности (TRIPS)).

<sup>1</sup> Агентство по привлечению иностранных инвестиций при Министерстве инвестиций и внешней торговли Республики Узбекистан, СЭЗ и МПЗ, URL: <https://invest.gov.uz/ru/investor/sez-i-mpz/>

<sup>2</sup> Агентство по привлечению иностранных инвестиций при Министерстве инвестиций и внешней торговли Республики Узбекистан, Двусторонние договора, URL: <https://invest.gov.uz/ru/investor/russkij-dvustoronne-dogovora/>

<sup>3</sup> UNCTAD, Investment Policy Hub, International Investment Agreements Navigator, Uzbekistan, URL: <https://investmentpolicy.unctad.org/international-investment-agreements/countries/226/uzbekistan>



В Республике Узбекистан правовой режим иностранных инвестиций закреплен в Законе Республики Узбекистан №ЗРУ-598 от 25.12.2019 г. «Об инвестициях и инвестиционной деятельности» и определяется в статье 46 данного Закона следующим образом:

*«Иностранным инвесторам и иностранным инвестициям предоставляется справедливый и равноправный режим, полная и постоянная их защита и безопасность. Такой режим не может быть менее благоприятным, чем режим, определенный в международных договорах Республики Узбекистан...»<sup>1</sup>*

На международном уровне правовые режимы определяются международными инвестиционными договорами, правил которых страны обязуются придерживаться при разработке своей торговой политики, и многосторонним мировым торговым порядком Всемирной торговой организации (ВТО), страной-наблюдателем которой является и Узбекистан.

### 1. Национальный режим (*National Treatment*)

Национальный режим закреплен в относительно небольшом количестве инвестиционных соглашений, поскольку многие страны-реципиенты иностранных инвестиций хотят сохранить за собой право отдавать предпочтение местным компаниям.

Как определяют правоведы, «...национальный — это режим, при котором принимающая страна предоставляет зарубежным инвесторам, по крайней мере такой же благоприятный режим, как и для национальных предпринимателей.»<sup>2</sup> Однако по своей природе нельзя относиться к иностранным и внутренним инвесторам абсолютно одинаково, ибо важно создать атмосферу справедливой конкуренции.

### 2. Режим наибольшего благоприятствования (*Most Favored Nation*)

Стандарт режима наибольшего благоприятствования закреплен почти во всех инвестиционных договорах. Режим наибольшего благоприятствования характеризуется как «...положение в международном договоре, в соответствии с которым государство соглашается предоставить другому договаривающемуся партнеру не менее благоприятный режим, чем режим, который оно предоставляет другому или третьим государствам»<sup>3</sup>

Как правило, режим наибольшего благоприятствования касается только основных положений о защите инвестиций. Однако в соответствии с решением арбитражного суда МЦУИС по делу Маффезини<sup>4</sup> его применение распространяется на правила урегулирования споров.

В двусторонних инвестиционных договорах Узбекистана действуют оба режима: и национальный режим, и режим наибольшего благоприятствования. Целью включения двух стандартов режима является обеспечение особенно благоприятного правового положения для иностранных инвестиций.

### 3. Справедливый и равноправный режим

Справедливый и равноправный режим действует на территории Узбекистана согласно трактовке, упомянутой выше. Как абстрактный принцип, его правовое содержание может быть определено только в каждом конкретном случае. Таким образом, справедливый и равноправный режим выполняет следующие функции:

В первую очередь, это средство восполнить пробел в правоотношениях. Это происходит в том случае, если какая-либо мера страны не покрывается ее обязательствами, вытекающими из национального режима и режима наибольшего благоприятствования (например, дискриминационная мера не из-за гражданства, а из-за места инвестирования в стране).

Во-вторых, справедливый и равноправный режим играет важную роль в интерпретации соответствующего инвестиционного соглашения. Если есть разные варианты интерпретации, следует выбрать тот, который лучше всего соответствует интересам обеих сторон

<sup>1</sup> Закон Республики Узбекистан №ЗРУ-598 от 25.12.2019 г. «Об инвестициях и инвестиционной деятельности», ст. 46, URL: <https://www.lex.uz/docs/4664144>

<sup>2</sup> Г.М. Костюнина, Н.Н. Ливенцев: Международная практика регулирования иностранных инвестиций, учебное пособие, Москва, 2001, стр. 42. URL: <https://mgimo.ru/upload/iblock/6eb/6eb7ae332e757724257b9831ed31f3.pdf>

<sup>3</sup> Доклад Комиссии международного права о работе ее тридцатой сессии, 8 мая — 23 июля 1978 г. стр. 199 URL: <https://legal.un.org/ilc/reports/2008/tussian/annexB.pdf>

<sup>4</sup> Emilio Agustín Maffezini v. Kingdom of Spain, ICSID Case No. ARB/97/7 (Decision on Jurisdiction) URL: <https://www.iisd.org/itn/en/2018/10/18/maffezini-v-spain/>



правоотношений.

### ***Защита инвестиций versus интересы***

В Узбекистане, наряду с условиями в контексте справедливого и равноправного режима, гарантируется также принцип транспарентности, позволяющий инвесторам оценить, какие правовые положения применяются к планируемому проекту, какие нормативные решения принимаются и т.д. Если законом обеспечен равноправный и справедливый режим по отношению ко всем инвесторам, то двусторонними инвестиционными договорами предоставляются странам-участникам договоров особые гарантии и условия. Итак, прямая или косвенная экспроприация и национализация строго запрещены договаривающимися государствами в двусторонних инвестиционных договорах. Исключения возможны только в случае общественных интересов (!), далее с немедленной выплатой компенсации.

Общественные интересы позволяют государству большую свободу действий. В целом, политическое оправдание (например, экспроприация как средство давления, ущемления), мотив улучшить финансовую ситуацию и цель обогащения частной третьей стороны считаются исключенными из общественных интересов. Однако, в конкретном случае общественный интерес трудно доказать.

Экспроприация представляет собой меры страны-бенефициара по принудительному лишению собственности, которые наиболее серьезно влияют на иностранные инвестиции. Положение об экспроприации основано на защите собственности в соответствии с общим международным правом. Законом Республики Узбекистан также устанавливается, что «...инвестиции и иные активы инвесторов не подлежат реквизиции (экспроприации), за исключением случаев стихийных бедствий, аварий, эпидемий, эпизоотий и при иных обстоятельствах, носящих чрезвычайный характер...»<sup>1</sup> Но на практике всё же встречаются случаи экспроприации собственности в Узбекистане.<sup>2</sup>

Согласно общему международному праву, экспроприация инвестиций допустима только в том случае, если это отвечает общественным интересам, является недискриминационным и происходит в обмен на компенсацию. Эти три предварительных условия обычно предусмотрены в инвестиционных соглашениях и других нормативных документах.

### ***Процесс урегулирования споров***

Разрешение споров – последнее средство для инвесторов, позволяющее защитить свои инвестиции в стране-бенефициаре.

Ранее законодательство Республики Узбекистан предполагало возможность выбора либо государственного суда Республики Узбекистан, либо арбитража<sup>3</sup>, однако теперь новый Закон предполагает сперва средства переговоров и медиации, далее средство разрешения спора судом Республики Узбекистан. Здесь, примечательно отметить, что если все вышеперечисленные меры не помогли в разрешении спора, лишь тогда стороны могут передать спор на разрешение международного арбитражного суда, в соответствии с действительной арбитражной оговоркой.<sup>4</sup>

Двусторонние инвестиционные договора обычно предусматривают два типа урегулирования споров: урегулирование споров между страной-реципиентом и страной инвестора, а также между страной-реципиентом и самим предполагаемым инвестором. Однако, что касается конкретных факторов, связанных с урегулированием споров (таких как назначение арбитров, крайний срок, в течение которого должно быть принято решение, применимое право и т. д.), индивидуальные инвестиционные договоры отличаются друг от друга, но не исключают возможность альтернативного разрешения спора с помощью арбитража.<sup>5</sup>

<sup>1</sup> Закон Республики Узбекистан №ЗРУ-598 от 25.12.2019 г. «Об инвестициях и инвестиционной деятельности», ст. 21, URL: <https://www.lex.uz/docs/4664144>

<sup>2</sup> Газета.уз. Госдепартамент США — об инвестиционном климате Узбекистана. URL: <https://www.gazeta.uz/ru/2020/09/10/investment/>

<sup>3</sup> Закон Республики Узбекистан №611-I от 30.04.1998 г. «О гарантиях и мерах защиты прав иностранных инвесторов», ст. 10 URL: <https://lex.uz/ru/docs/8522>

<sup>4</sup> Закон Республики Узбекистан №ЗРУ-598 от 25.12.2019 г. «Об инвестициях и инвестиционной деятельности», ст. 63, URL: <https://www.lex.uz/docs/4664144>

<sup>5</sup> Соглашение между Правительством Республики Узбекистан и Правительством Российской Федерации «О поощрении и взаимной защите инвестиций», Москва, 15 апреля 2013 года, ст. 8 URL: <http://invest.gov.uz/wp-content/uploads/agreement/Russia.docx>



### *Заключение*

И старые Законы об инвестициях<sup>1</sup>, и новый Закон<sup>2</sup> устанавливают «справедливый и равноправный режим, полную и постоянную защиту и безопасность.»

Иностранные инвестиции в Узбекистане сегодня пользуются не только внутренней, но и международной правовой защитой. Иностранные инвесторы имеют право осуществлять инвестиционную деятельность в Узбекистане в любой форме, не запрещенной законодательством Узбекистана.

Возможное членство в международных интеграционных структурах, организациях, в частности в ВТО, дало бы Узбекистану особые возможности, позволяющие росту потока иностранных инвестиций и увеличению количества иностранных предприятий. Это дало бы также возможность пересмотреть существующие проблемы и пробелы в законодательстве Узбекистана: налоговое и таможенное реформирование, свободное передвижение капитала, возможность подписания многостороннего инвестиционного договора и др.

Но существует одна большая проблема для иностранных инвесторов, но также и для резидентов Узбекистана, – это трудности с соблюдением требований законодательства, с практической реализацией норм законов. С этой целью, важно разработать оптимальные инструменты для эффективного соблюдения норм законов, что в последствии позволит полной реализации благополучного инвестиционного климата в стране, ибо решение иностранных инвесторов инвестировать в ту или иную страну зависит в большей степени от правовой системы и правового режима страны-бенефициара.

### **Список использованной литературы:**

1. Закон Республики Узбекистан №3РУ-598 от 25.12.2019 г. «Об инвестициях и инвестиционной деятельности», ст. 46, URL: <https://www.lex.uz/docs/4664144>
2. Закон Республики Узбекистан «Об инвестиционной деятельности» от 24 декабря 1998г. №719-I; URL: <https://www.lex.uz/docs/3914>
3. Закон Республики Узбекистан «Об иностранных инвестициях» от 30 апреля 1998 года №609-I; URL: <https://lex.uz/docs/7452>
4. Закон Республики Узбекистан «О гарантиях и мерах защиты прав иностранных инвесторов» от 30 апреля 1998 года №611-I; URL: <https://lex.uz/docs/8522>
5. Соглашение между Правительством Республики Узбекистан и Правительством Российской Федерации «О поощрении и взаимной защите инвестиций», Москва, 15 апреля 2013 года, ст. 8 URL: <http://invest.gov.uz/wp-content/uploads/agreement/Russia.docx>
6. UNCTAD, Investment Policy Hub, International Investment Agreements Navigator, Uzbekistan, URL: <https://investmentpolicy.unctad.org/international-investment-agreements/countries/226/uzbekistan>
7. Агентство по привлечению иностранных инвестиций при Министерстве инвестиций и внешней торговли в Республике Узбекистан, СЭЗ и МПЗ, URL: <https://invest.gov.uz/ru/investor/sez-i-mpz/>
8. Доклад Комиссии международного права о работе ее тридцатой сессии, 8 мая — 23 июля 1978 г. стр. 199 URL: <https://legal.un.org/ilc/reports/2008/russian/annexB.pdf>
9. Г.М. Костюнина, Н.Н. Ливенцев: Международная практика регулирования иностранных инвестиций, учебное пособие, Москва, 2001, стр. 42. URL: <https://mgimo.ru/upload/iblock/6eb/6eb7ae332e757724257b9831ed31f3.pdf>
10. Газета.уз. Госдепартамент США — об инвестиционном климате Узбекистана. URL: <https://www.gazeta.uz/ru/2020/09/10/investment/>
11. Emilio Agustín Maffezini v. Kingdom of Spain, ICSID Case No. ARB/97/7 (Decision on Jurisdiction) URL: <https://www.iisd.org/itn/en/2018/10/18/maffezini-v-spain/>

<sup>1</sup> Закон Республики Узбекистан «Об инвестиционной деятельности» от 24 декабря 1998г. №719-I; URL: <https://www.lex.uz/docs/3914>

Закон Республики Узбекистан «Об иностранных инвестициях» от 30 апреля 1998 года №609-I; URL: <https://lex.uz/docs/7452>

Закон Республики Узбекистан «О гарантиях и мерах защиты прав иностранных инвесторов» от 30 апреля 1998 года №611-I; URL: <https://lex.uz/docs/8522>

<sup>2</sup> Закон Республики Узбекистан №3РУ-598 от 25.12.2019 г. «Об инвестициях и инвестиционной деятельности», URL: <https://www.lex.uz/docs/4664144>



## BYUDJET QONUNCHILIGINI BUZGANLIK UCHUN MA'MURIY JAVOBGARLIK

**Movlonov Bahromali Qodirovich**  
Farg'ona yuridik texnikumi o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Maqolada byudjet qonunchiligi hamda byudjet qonunchiligini buzganlikda ma'muriy javobgarliklar haqida ma'lumotlar berilgan.

**Kalit so'zları:** byudjet, byudjet qonunchiligi, ma'muriy javogarlik, jinoiy javobgarlik.

Byudjet intizomini buzish, ya'ni byudjet qonunlarini buzish deganda Davlat byudjeti, davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlari va byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari jamg'armalari mablag'larini ularni olish shartlariga muvofiq bo'limgan maqsadlarga yo'naltirish, byudjet mablag'larini byudjetda yoki byudjetdan moliyalanadigan muassasalar va tashkilotlarning smetalarida nazarda tutilmagan harajatlarga yo'llash, shunday muassasalar va tashkilotlarda harajatlar qismi bo'yicha byudjetdan ajratilgan mablag'larning limitlardan ortib ketishi, smeta-shtat intizomini buzilishi, hamda mehnatga haq to'lash bo'yicha belgilangan razryadlarga, lavozim maoshlari, ustamalar, ish haqiga qo'shimchalar va boshqa to'lovlar miqdorlariga rioya etmaslik, byudjetdan moliyalashtiriladigan muassasalar va tashkilotlarga ish haqi, pensiyalar, nafaqalar, stipendiyalar va ularga tenglashtirilgan boshqa harajatlarni to'lash uchun pul mablag'lari berilishini, shuningdek pensiyalarni yetkazib berishni amalga oshiruvchi muassasalarga pul mablag'lari berilishini banklarning rahbarlari va boshqa mansabdor shaxslari tomonidan asossiz kechiktir xolatda byudjet intizomi buzilgan hisoblanadi.

Ushbu xolatlar yuzaga kelgan vaqtida ma'muriy jazovobgarlikka tortishga asos bo'ladi. Ma'muriy jazovobgarlikka tortishga qo'llanilganidan keyin yana ushbu xolat takroran sodir etilgan bo'lsa, jinoiy javobgarlikka tortilishiga sabab bo'ladi.

Bizga malumki, byudjet qonunlarini buzish-byudjet talablariga rioya etmaslik natijasida byuddjetda asosiy taqchillik paydo bo'lishi, talab qilingan vositalar, mablag'lar bilan muhtoj bo'lgan muassasa tashkilotlarning tashkilotlarning ta'minlanmasligiga olib keladi. Byudjet intizomini buzish davlat mablag'larini samarali, to'liq natija bilan va o'z o'rnida ishlatishga imkon bermaydi. Byudjet intizomini buzish foyda yoki soliq solinadigan boshqa obektlarni yashirish, kamaytirib ko'rsatish, shuningdek, davlat tomonidan belgilangan soliqlarni, yig'imlarni, boj yoki boshqa to'lovlarini to'lashdan qastdan bo'yin tov lashda ifodalananadi. Byudjet intizomini buzish, yani byudjet mablag'larini byudjetda yoki byudjetdan moliyalanadigan muassasalar va tashkilotlarning smetalarida nazarda tutilmagan harajatlarga yo'llash, shunday muassasalar va tashkilotlarda harajatlar qismi bo'yicha byudjetdan ajratilgan mablag'larning limitlaridan ortib ketishi, smeta-shtatintizomini buzish deb etirof yetiladi va ma'muriy va jinoiy javobgarlikka sabab bo'ladi. O'zbekiston Respublikasining ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 175-moddasi byudjet intizomini buzganlik uchun javobgarlik deb nomlangan bo'lib, unga ko'ra Byudjet intizomini buzish, ya'ni byudjet mablag'larini byudjetda yoki byudjetdan moliyalanadigan muassasalar va tashkilotlarning smetalarida nazarda tutilmagan harajatlarga yo'llash, shunday muassasalar va tashkilotlarda harajatlar qismi bo'yicha byudjetdan ajratilgan mablag'larning limitlardan ortib ketishi, smeta-shtatintizomini buzilish xolatlar aniqlangan xolatlarda ma'murish ish qo'zg'atish vakolatiga ega bo'lgan organlar tomonidan ma'muriy javobgarlikka tortilishga sabab bo'ladi. 30Ushbu xolat ma'muriy javobgarlikka tortilgandan keyin yana sodir etilsa jinoiy javobgarlikka sabab bo'ladi hamda ushbu xolat yana takrorlansa, O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksining 184-moddasi bilan javobgarlikka tortishga sabab bo'ladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Б.А.Жўраев Бозор иқтисодиёти шароитида давлат бюджетининг рўли. Диссертация. – Т.: 2010.
2. Остонақулов М. Бюджет ҳисоби ва бюджет ижросининг назорати. – Т.: 2005



## ISSUES OF ELABORATING THE LEGISLATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN THROUGH CLASSIFICATION OF CONTRACTS IN CIVIL LAW AND COMMON LAW SYSTEMS

**Bobakhanova Ikbol Otakhon qizi**

Master's degree student at Tashkent State University of Law

**Annotation:** This research work provides a comparative analysis of different types of contracts in the Civil law and Common law systems and main aspects for their classification. The work is also an endeavor to find the link between contractual relationship of the parties and memorandum of association. As a result of comparative analysis, scientific conclusions and recommendations have been developed for the civil legislation of the Republic of Uzbekistan in order to improve the effectiveness of the legal regulations in the sphere of contract law.

**Keywords:** contract, Civil law, Common law, types of contract, classification of contract law, Civil code, legislation.

Nowadays contracts play a pivotal role in ensuring that companies, employers, employees, and third party service providers are compensated fairly for their goods, labor, or services. In most legal systems in the world there is stated by law that when doing any kind of illustration work, it's important to have a contract. Although there are some differences in the terms of elements, formation, types and classification of contracts in Civil law and Common law, generally contracts are important for the following reasons:

- contracts provide a written document that outlines the full understanding of the business relationship and scope of the work so that no one can claim any misunderstandings later down the road;
- they specify exactly what rights are being purchased and is being retained;
- they're binding and legally enforceable;
- they minimize risk and seek to protect both parties from damages.

Today, The Republic of Uzbekistan is entering a new era of national development. In his January 24, 2020 The President of the Republic of Uzbekistan Shavkat Mirziyoyev, during his Address to the Oliy Majlis noted that the effectiveness of reforms depends on four factors in our country: the rule of law, the fight against corruption, improving institutional capacity in every field and the formation of strong democratic institutions.<sup>1</sup> At the same time, the democratic nature of the contract means the harmonization of the interests of the parties on the basis of mutual consensus. In order to reach that matter above it is aimed to study different types of contracts and its classification problems through comparative legal analysis in both Civil law and Common law systems in this research work. Besides that, the necessity to develop a scientific and methodological recommendations to the regulation of contractual issues demonstrates the relevance of this topic.

Contract law of the Republic of Uzbekistan is codified as it is based with the framework of Romano-Germanic legal system and the main legislation that governs contract law in the Republic of Uzbekistan consists of two legislative acts. They are the Civil Code and the Contracts Law. Although judicial precedent in the Republic of Uzbekistan is not considered to be a formal source of law, contract law in Uzbekistan, its principles and regulations to some extent are similar to the English contract law. The Civil Code of the Republic of Uzbekistan provides for the notions of a contract, principles of "offer" and "acceptance", "consideration", as well as regulates main rules applied to conclusion of contracts, including forms of contracts, annulment of contracts, legal consequences of annulment, sanctions on the parties that breached contract terms.<sup>2</sup> It also provides basic rules for certain types of contracts, such as sale-purchase agreements, lease agreements, transportation agreements, loan agreements and others. The Contracts Law contains general rules of the order of concluding contracts, order of amending and canceling contracts and is more specific on sanctions (that could, however, be contractually altered) imposed upon the parties to the contract with respect to certain types of breaches. Contract Law practice provides an overview of Contract

<sup>1</sup> Address of the President of the Republic of Uzbekistan Shavkat Mirziyoyev to Oliy Majlis. 24.01.2020.

<sup>2</sup> Catherine Elliott & Frances Quinn. Contract law. 8th edition. Longman. // URL. <https://www.pearsoned.co.uk/law>



Law of Uzbekistan, including issues on agency, commodity exchange operations, contractual penalties, damages, import-export operations, gambling, indemnities, liabilities, netting and set-offs, public procurements (bids), trust management, templates of contracts and agreements, forms of advises on related matters.

Legal practice in the post-soviet union environment in recent years show that a large number of Memorandum of Association, Joint Venture and international financing transactions in Uzbek companies involving foreign entities or foreign investment are governed by laws other than national legislation. Establishment of legal entities are based on contractual agreement of the founders and Uzbek law provides a relative freedom at the conclusion of the contracts or afterwards through allowing parties to choose the law that will apply to their rights and obligations under the contract. A choice of law upon agreement of the parties is provided by the article 1189, Civil Code of the Republic of Uzbekistan. However, the foreign law chosen by the parties cannot, in theory, affect the operation of the imperative norms of the legislation, meaning that the minimum requirements set by the legislation should be complied with at all instances. The rigid nature of the national legislation and distrust towards the judicial system of Uzbekistan is the main reason why much legal activity is effectively “offshored” through the use of contracts governed by English law, and disputes being referred to arbitration in London as in every other CIS country. English law, as well as English arbitration courts, often appear in the international transactions, including transactions involving Uzbek entities. English law is widely used around the world because of its clear, well-established character. The British legal system has evolved for over several hundred years and continues to grow and is characterized by flexibility and adaptation to the rapidly changing business environment. This flexible nature is one of the most appealing aspects of English law, which can also confuse those who are not familiar with it. The contractual principles of British law are very clear, concise and flexible to great extent and therefore, permit the parties to agree on whatever terms they may want. Legal provisions, such as warranties, representations, indemnities, put and call options, covenants, drag and tag along options, conditions precedent, good leaver/bad leaver provisions, deadlocks mechanisms and preferential share rights make English law straight-forward, flexible and thus, preferable by foreign investors entering Uzbek market. Through examining the existing national legislation and making cross jurisdiction comparison with the English law concepts the paper will make an attempt to put forward recommendations for wider research in the area to make Uzbek law preferable by foreign investors.<sup>1</sup>

Today, in court practice a significant proportion of claims that are arising from civil legal relations associate with the formation, execution and termination of contracts. Different problems appearing in the recognition of contracts invalid or void, failing to perform obligations by parties lead to different interpretations in the field of legal regulation of contracts which are unknown to the law. Consequently, these cases require the improvement of legislation.

Currently, the issue of regulating unnamed and mixed contracts in the field of civil law remains controversial. For the practical implementation of the principle of freedom of contract, the provisions of the first and third paragraphs of Article 354 of the Civil Code of the Republic of Uzbekistan should be clarified. So we consider that it necessary to define the role of unnamed contracts and mixed contracts in civil legislation. As scientific recommendation, we can say that the subject of comparative contract law should include the topic of different types of contracts and the legal basis for their classification in Civil law and Common law systems.

### References:

1. Address of the President of the Republic of Uzbekistan Shavkat Mirziyoyev to Oliy Majlis. 24.01.2020. // URL. <https://www.gazeta.uz/oz/2020/01/24/president-speech/>
2. Civil code of the Republic of Uzbekistan (part one), adopted on the 21<sup>st</sup> of December, 1995 // <https://lex.uz/docs/111189>
3. Mualliflar jamoasi. Fuqarolik huquqi. 1-qism. Darslik. – T.: TDYU, 2017 y. – 312 b.
4. Catherine Elliott & Frances Quinn. Contract law. 8th edition. Longman. // URL. <https://www.pearsoned.co.uk/law>
5. McKendrick Ewan. Contract Law: Text, Cases, and Materials. – Oxford Academ, 2014. – 450 p.

<sup>1</sup> Arabjanov A.O. Use of English Law in Uzbek Corporate Transactions (2014). U. of Westminster School of Law Research Paper No. 14-06. // URL. <https://ssrn.com/abstract=2475843>



## ZARAR – YURIDIK SHAXS ISHTIROKCHILARI VA BOSHQARUV ORGANLARI FUQAROLIK-HUQUQIY JAVOBGARLIGINING ZARURIY SHARTI SIFATIDA

Ibrohimov Azimjon Abdumo'min o'g'li  
Toshkent davlat yuridik universiteti magistranti

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada yuridik shaxs ishtirokchilari va boshqaruv organlari a'zolarining fuqarolik-huquqiy javobgarlik sharti sifatida yuridik shaxsda yuzaga keladigan zarar bilan bog'liq munosabatlar ko'rib chiqiladi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi fuqarolik huquqida uni takomillashtirishga oid fikr-mulohazalar ilgari suriladi.

**Kalit so'zlar:** yuridik shaxs, qarzdor, zarar, boy berilgan foyda, neustoyka, adolatlilik va mutanosiblik prinsipi.

O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi (keyingi o'rinnarda – FK) 324-moddasiga[1] binoan qarzdor majburiyatni bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi tufayli kreditorga yetkazilgan zararni to'lashi shart. Ushbu Kodeksning 985-moddasida esa g'ayriqonuniy harakat (harakatsizlik) tufayli fuqaroning shaxsiga yoki mol-mulkiga yetkazilgan zarar, shuningdek yuridik shaxsga yetkazilgan zarar, shu jumladan boy berilgan foyda zararni yetkazgan shaxs tomonidan to'liq hajmda qoplanishi lozimligi nazarda tutilgan.

Fuqarolik huquqida zarar deganda moddiy va nomoddiy ne'matlarga daxl qilinishi natijasida yuzaga keladigan salbiy oqibat tushiniladi. Shu asosda mulkiy zarar va nomulkiy ziyon farqlandi[2].

Moddiy zarar mulkiy yo'qotishlardan – jabrlanuvchi huququzarlik oqibatlarini bartaraf etish uchun amalga oshirgan yoki amalga oshirishi kerak bo'lган xarajatlardan; jabrlanuvchining yo'qotilgan yoki shikast yetkazilgan mol-mulki qiymatidan; jabrlanuvchi shaxs olishi mumkin bo'lган, lekin huququzarlik sodir etilishi natijasida ololmay qolgan daromadlardan. Bunda birinchi va ikkinchi bandda ko'rsatilganlar haqiqiy zarar, uchinchi bandda ko'rsatilganlar boy berilgan foyda deb nomlanadi. Boy berilgan daromadlar hajmini aniqlashda "fuqarolik muomalasining odatdagi sharoitlari" va uni olish uchun amalga oshirilgan haqiqiy choralar va tayyorgarlik hisobga olinadi.

Moddiy zarar naturada qoplanishi mumkin (shikast yetkazilgan shyoning ta'mirlab berilishi, ashyo o'rniga o'sha turdag'i va sifatdagi boshqa ashyo taqdim etilishi) yoki pulda qiymati to'lab berilishi mumkin. Zararni qoplash shartnomaviy munosabatlarda ham, shartnomadan tashqari munosabatlarda ham qo'llanishi mumkin bo'lган fuqarolik-huquqiy javobgarlik chorasi hisoblanadi.

Fuqarolik huquqida zararni to'liq qoplash prinsipi amal qiladi. Ya'ni, agar qonun yoki shartnomada zararni kamroq miqdorda to'lash nazarda tutilmagan bo'lsa, huquqi buzilgan shaxs o'ziga yetkazilgan zararning to'la qoplanishini talab qilishi mumkin (FK 14-m.). Shuningdek qonunlarda yoki shartnomada ko'rsatilgan hollarda to'liq javobgarlikdan chekinishga yo'l qo'yiladi (FK 332-m.). Inflatsiya sharoitida zarar miqdorini hisoblash asosi bo'lган narxlarda o'zgarishlar bo'lishi mumkin. Shu boisdan FKning 324-moddasida belgilanadiki, agar qonun hujjatlarida yoki shartnomada o'zgacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, zararni aniqlashda majburiyat bajarilishi kerak bo'lган joyda, qarzdor kreditoring talablarini ixtiyoriy qanoatlantirigan kunda, bordi-yu, talab ixtiyoriy qanoatlantirilgan bo'lmasa, - da'vo qo'zg'atilgan kunda mavjud bo'lган narxlar e'tiborga olinadi. Sud vaziyatga qarab, zararni to'lash haqidagi talabni qaror chiqarilgan kunda mavjud bo'lган narxlarni e'tiborga oigan holda qanoatlantirishi mumkin.

Sud amaliyotida ba'zi holatlarda zararning aniq miqdorini isbotlash qiyinchilik tug'diradi va ayrim hollarda zarar miqdori aniq ko'rsatilmaganligi da'voni qanoatlantirishni rad etishga sabab bo'lishi mumkin. Shu munosabat bilan FKga zararning aniq miqdori isbotlanmagan bo'lsa-da, da'voni qanoatlantirishni rad etmay sud tomonidan oqilona darajada ishonchlik bilan javobgarlikning adolatlilik va mutanosiblik prinsiplariga amal qilgan holda javobgarlik hajmini belgilashga imkon beradigan qoidalarni kiritish taklif etiladi[3].

Fuqarolik huquqida zarar mavjud-mavjudemasligidan qat'iy nazar fuqarolik-huquqiy javobgarlik yuzaga kelishi mumkin bo'lган holatlar ham mavjud. Xususan, majburiyat bajarilmagan yoki lozim darajada bajarilmagan hollarda to'lanadigan neustoyka bo'yicha kreditor o'ziga yetkazilgan zararni isbotlashi shart emas.

Biroq fuqarolik huquqida javobgarlik, asosan, kompensatsion (tiklash) funksiya bajarganligi



uchun zarar yetish holati javobgarlikning asosiy shartlaridan hisoblanadi. Zararni qoplashdan qat'iy nazar qo'llanadigan qo'shimcha sanksiyalar esa fuqarolik muomalasi ishtirokchilarini majburiyatlarni lozim darajada bajarishga undab jazolovchi funksiya bajaradi.

Nomoddiy zarar esa jismoniy va yuridik shaxslarga tegishli nomoddiy ne'matlarga daxl qilinganda vujudga keladi va jismoniy shaxslarning hayoti va sog'lig'i, shaxsi, sha'ni va qadr-qimmati, jismoniy va yuridik shaxslarning ishchanlik obro'siga putur yetkazish natijasi hisoblanadi. Nomoddiy ziyon moddiy shaklda kompensatsiya qilish, raddiya berish kabi choralar bilan himoya qilinishi mumkin. O.V. Bogdanov tomonidan yuridik shaxs ishchanlik obro'siga yetkazilgan zararni undirishga oid maxsus qoida kiritishni taklif qiladi. Hozirda bunday ishlarni FKning 100-moddasi qoidalari asosida ko'rib chiqilishi mumkin.

Shuningdek fuqarolik-huquqiy javobgarlik bo'yicha zarar miqdorini aniqlashda aralash ayblilik(смешанная виновность) bilan zarar yetkazilganda, ya'ni zarar yetkazilishi hamda uning hajmi ortishida qarzdor (zarar yetkazuvchi) bilan birga kreditor (jabrlanuvchi)ning ham aybi bo'lgan hollarda qarzdor (zarar yetkazuvchi)ning fuqarolik-huquqiy javobgarligi hajmini cheklashga yo'l qo'yilishi mumkin[6].

Keltirilgan tahlillar asosida yuridik shaxs boshqaruva organlari va ishtirokchilarining huquqqa xilof xulq-atvori natijasida yetkaziladigan zararni ko'rib chiqadigan bo'lsak, Y.N. Nazarova yuridik shaxsga yetkazilgan zarar bo'yicha quyidagicha ta'rif keltiradi: "boshqaruva organlarining fuqarolik-huquqiy javobgarligi nuqtayi nazaridan zarar deganda – yuridik shaxsda odatdag'i bozor narxlari bo'yicha teng qiymatli muqobil ijroga ega bo'lmasgan majburiyatlar yuzaga kelishi; o'xshash holatlarda amalga oshiriladigan xarajatlarga qaraganda ortiqcha sarf-xarajatlar amalga oshirilishi; yuridik shaxs mol-mulkining yo'qotilishi yoki uning qiymati kamayishida ifodalanadigan mulkiy yo'qotishlarni tushunish kerak[7]." Fikrimizcha, boshqaruva organlarining huquqqa xilof faoliyati natijasida yuridik shaxsga yetkaziladigan zarar yuqoridagilar bilan cheklanmaydi. Garchi nomulkiy tusda bo'lsa ham yuridik shaxsning ishchanlik obro'siga (gudvill) putur yetishini, natijada tadbirkorlik subyektining kontragentlari yoki mijozlari kamayib ketishini, ulushlarning real qiymati, aksiyalarning bozor qiymatining pasayib ketishini ham ziyon sifatida e'tirof etish mumkin.

Yuridik shaxs ishtirokchilari tomonidan belgilangan majburiyatlarga amal qilmaslik, yuridik shaxs boshqaruva organlari a'zolarining yuridik shaxs manfaatlari yo'lida halol va oqilona ish olib borishdan iborat majburiyatlarga rioya etmaslik natijasida yuridik shaxsga yetkazilgan zarar to'la hajmda qoplanishi kerak. Shuningdek, yuridik shaxs ishtirokchilari o'rtasida tuziladigan shartnomaga (ta'sis shartnomasi) hamda ijro organlari a'zolari bilan yuridik shaxs o'rtasida tuziladigan shartnomada majburiyatlar buzilganligi uchun neustoyka to'lash majburiyati ham nazarda tutilishi mumkin. Neustoyka yuridik shaxsga yetkazilgan zarar tarkibiga kirmasa-da, oshirilgan javobgarlik nuqtayi nazaridan ahamiyatga ega.

Qolaversa, yuridik shaxs ishtirokchilari va boshqaruva organlari a'zolarining huquqqa xilof xulq-atvorining salbiy oqibati sifatida yuridik shaxsning bankrotligi yuzaga kelishini ham e'tirof etish mumkin. Bankrotlik shaklidagi salbiy oqibat yuridik shaxs ishtirokchilari va boshqaruva organlarining tashqi, ya'ni kreditorlar oldidagi javobgarligi sharti hisoblanadi.

Shu bilan birga boshqaruva organlari a'zolariga zararni qoplash haqida talab qo'yish yuridik shaxsga yetkazilgan zararni fuqarolik huquqlarini himoya qilishning boshqa usullari, jumladan, bitimlarni haqiqiy emas deb topish, haqiqiy bo'lmasgan bitimlar oqibatlarini qo'llash, asossiz orttirilgan boylikni qaytarish, zararni bevosita kontragentlardan yoki yuridik shaxs xodimlaridan undirish orqali qoplash imkoniyatiga bog'liq bo'lmasligi kerak. Biroq agar yuridik shaxsga yetkazilgan zarar fuqarolik huquqlarini himoya qilishning boshqa usullari orqali qoplangan holatlarda ushbu zarar bo'yicha boshqaruva organlari a'zolarining yuridik shaxs oldidagi fuqarolik-huquqiy javobgarligi istisno etilishi kerak. Chunki bunday hollarda ayni bir zararni ikki marta undirish holati yuzaga kelib yuridik shaxsda asossiz orttirilgan boylik yuzaga kelishi mumkin. Qolaversa, fuqarolik huquqlarini himoya qilishning boshqa usullarini qo'llash orqali zarar qoplanishi bilan boshqaruva organlari a'zolarining javobgarlikdan ozod etilishi ularga qilgan xatolarini o'z tashabbuslari bilan (masalan, bitimni haqiqiy emas deb topish, zararni kontragentlardan undirish haqida da'vo talablari bilan murojaat etish) tuzatish imkoniyatini bergen bo'lar edi.



**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi // URL: <https://lex.uz/docs/111189>
2. Богданов О. В. Вред-как условие гражданско-правовой ответственности: автореф . дисс. ... канд. юрид. наук. – Саратов, 2001 – с. 12-13.
3. Гражданское право. В 4 т. Т. 1: Общая часть : учеб. для студентов вузов, обучающихся по направлению 521400 «Юриспруденция» и по специальности 021100 «Юриспруденция» / [Ем В.С. и др.]; отв. ред. — Е.А. Суханов. — 3-е изд., перераб и доп. — М. : Волтерс Клювер, 2006. — 326 с.;
4. Богданов О. В. Вред-как условие гражданско-правовой ответственности: автореф . дисс. ... канд. юрид. наук. – Саратов, 2001 – с. 23. 5
5. Гражданское право: Учебник. В 2 т. / Под ред. Б.М. Гонгало. Т. 1. 2-е изд. перераб. и доп.– М.: Статут, 2017. – с. – 324;
6. Назарова Е.Н. Гражданско-правовая ответственность членов органов управления хозяйственных обществ: дисс...канд. юрид. наук. – Екатеринбург, 2015. – 170 с.



## O'ZBEKISTONDA KORRUPSIYANING DOLZARB MUAMMOLARI

Yoqubova Ro'zigul Olim qizi<sup>1</sup>,  
Akmuradova Anora Qurbon qizi<sup>2</sup>

TATU 3-kurs talabalari,  
Tel: +998(99).0762829,+9989(90).3186894  
e-mail: ruzigulekubova@gmail.com,  
akmuradovaanora@gmail.com,

**Annotatsiya:** Xalq tilida "poraxo'rlik", keng ma'noda esa korrupsiya, deb ataluvchi, illatga qul bo'lgan amaldorlar davlatning, jamiyatning, xalqning ishonchini suiste'mol qilib, o'z manfaatlarini xalq va davlat manfaatlaridan ustun qoyishni o'zlariga ep ko'rarkan ushbu maqolada uni keltirib chiqaruvchi sabab va unga qarshi kurash choralarini tahlil etilgan.

**Kalit so'zlari.** poraxo'rlik, halollik, davlat, organ, xalq, jamiyat.

Mamlakatimizda korrupsiyaga qarshi ayovsiz kurash 2016-yilning oktabr oyidan boshlandi. Shu yilning 14-oktabrida muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning konstitutsiyaviy qonunchilik tashabbusi asosida "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi qonun loyihasi Oliy Majlis tomonidan qabul qilindi, qonun 2017 yil 4 yanvardan boshlab kuchga kirdi. Mazkur qonunda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi munosabatlarni to'liq qonuniy tartibga solish, davlat boshqaruvi organlari hamda fuqarolik jamiyatni institutlarining korrupsiyaga qarshi kurashi yuzasidan ko'rayotgan chora-tadbirlar samaradorligini oshirish, fuqarolarning huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish orqali jamiyatda korrupsiyaga toqat qilmaslik muhitini yaratish ko'zda tutildi. Ummum davlat korrupsiyaga qarshi kurashni izchillik va qat'iyat bilan tashkil eta olishining huquqiy asoslari yaratildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldag'i "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuning qoidalarini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga binoan Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha Respublika idoralararo komissiyasi tuzildi. 2018 yil 9-aprelda O'zbekiston Respublikasining "Davlat xaridlari to'g'risida"gi qonuni qabul qilindi. Mazkur qonunning 12-moddasi "Korrupsiyaga yo'l qo'ymaslik prinsipi" deb nomlanib, unda "Xarid qilish tartib-taomillarini tashkil etish va o'tkazishga doir talablar davlat xaridlari sohasida korrupsiyaga oid huquqbazarliklarga yo'l qo'ymasligi kerak. Bunda korrupsiyaning oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlar ustuvor bo'ladi", degan qoida belgilandi. Shuningdek, mazkur qonun kuchi bilan bu sohada davlat xizmati ko'rsatishning shaffof tizimi shakllantirildi.

Korrupsiya haqida so'z yuritar ekanmiz, bu so'zning lug'aviy manosi barchani birdek o'ylan-tirsa ajab emas albatta. Keling, bu borada batafsil to'xtalib o'tsak.. Aslida korrupsiya biror mansabdar shaxsnинг axloqqa zid ravishda o'zining boshqaruv vakolatlari hamda huquqlaridan shaxsiy manfaatlar maqsadida foyda olishdir. Oddiy xalq orasida korrupsiya deganda ko'pincha tanish-bilishchilik, davlat amaldorlarining shaxsiy boylik orttirishi, davlat jumladan xalq manfaatlari va resurslariga ziyon yetkazish maqsadidagi poraxo'rligi tushuniladi. Kechirasizu asosiy muammo shundaki: biz bu poraxo'rlik illati bilan avval maktablarda, keyinchalik litsey-kollejlarda, undan keyin esa oliy o'quv yurtlarida, ancha ko'p duch kelganimiz.

Endi aytinchi unib usib kelayotgan yosh avlodni halollikka undayapmizmikan? Ularga o'z maqsadlari sari mashaqqatli, yo'lni bosib o'tish kerak ekanligini uqtirishdan ko'ra o'zimiz shu karrupsiyani o'rgatmayapmizmi ota-onalar? Qachon tanish bilishchilikdan voz kechiladi? Bu kabi muammolar anchayin ko'p va dilni xira qiladi. Umuman olganda korrupsiya tushunchasi anchayin keng bo'lib, quyi tabaqadan tortib to yuqori tabaqagacha bo'lgan aholining deyarli barcha ijtimoiy qatlamlari, nafaqat davlat, balki xususiy sohalarni ham o'rgimchak singari qamrab olganligi hech kimga sir emas. Bunday jirkanch illat har bir sohada "gullab yashnashi" mumkin qachonki kursida o'tirgan amaldorning to'g'rilik va halollik kabi hislatlari yoqolganda. Buni qarangki islom dinida ham pora harom qilingan, bu borada hadislar ham juda ko'p. Ulardan birini hadis ilmining sulton bo'lmish Imom al-Buxoriyning "Al-jome' - Sahih" (Ishonchli hadislar to'plami) asarida keltirilgan Payg'ambarimiz (s.a.v) mana bu qarg'ishlaridir: "Pora beruvchiga ham, pora oluvchiga ham Allohning la'nati bo'lsin!". Yana ul zot aytadilar: "Pora beruvchini ham, pora oluvchini ham, ikkovi orasida yurib porada vositalik qiluvchini ham Alloh la'natlasin!". Yoshlari bizdan ancha katta keksalarimiz shunday takidlashadiki, to bir kishi boshqalardan pora olmasa, boshqaga pora bermaydi.



Pora berish va pora olish haromdir. Va pora olgan pora bergandan yomonroq bo‘ladi, chunki oluvchi beruvchi oldida zabun bo‘ladi. Hozirgi zamonda esa davlat boshqaruvining takomillashuvi va murakkablashuviga ko‘ra, korrupsiyaning ham turli xil shakllari yuzaga kelib, oxir-oqibatda u global muammolardan biriga aylanib ulgurdi.

BMT Bosh kotibining bildirishicha, “Korrupsiya odamlarni maktab, kasalxonalardan mahrum qiladi, investorlarni vahimaga soladi, tabiiy resurslar talon-taroj bo‘lishiga sabab bo‘ladi, boshqa turli jinoyatlar paydo bo‘lishiga shart-sharoit yaratadi. Shu o‘rinda qiziqarli ma’lumot keltirib o’tmoqchiman gap qaysi (rivojlanayotgan yoki rivojlangan) davlat haqida ketmasin, korrupsiya hodisasi har yerda uchraydi. G‘arb mamlakatlarda, masalan, Fransiyada tibbiyot va ta’lim sohasida korrupsiya deyarli mavjud emas. Ya’ni tibbiyot xodimini moliyaviy jihatdan rag‘batlantirish “zarurati“ga hojat qolmaydi, chunki bemor rasman uning xizmati uchun gonorar to‘laydi. Bunda tibbiy xizmat uchun deyarli barcha gonorarlar nafaqat xususiy, balki davlat tibbiyotida ham tibbiy sug‘urta bilan qoplanadi. Ko‘rinib turibdiki, xususiy tibbiyot tizimi bu sohada korrupsiyaning rivojlanishini qo‘llab-quvvatlamaydi. Ayrim insonlar an‘anaga ko‘ra, bajarilgan ish uchun minnatdorlik izhor qilish tabiiy, degan o‘rinli e‘tiroz bildirishi mumkin.

Har qanday sohaning muammosi bo‘lgani kabi yechimi ham albatta bo‘ladi. Nazarimda ko‘plab korxonalarda sovg‘a olish masalalarini tartibga soluvchi ichki reglament qabul qilinib, unda xodimlardan sovg‘a olish yoki berishda shaffoflik talab qilinishi hamda ruxsat berilgan va ruxsat berilmagan sovg‘a va iltifot belgilari, ularning belgilangan qiymati, sovg‘a olgan shaxsning uni maxsus registrda deklaratsiya qilish majburiyati mustahkamlab, pul ko‘rinishidagi sovg‘alarni olish man etilsagina korrupsiya balosi qisman yo‘qolar edi. Ta’lim sohasiga kelganda korrupsiyaning rivojlanishi yoshlarda bilimlarga bo‘lgan qiziqish pasayishiga, olyi ta’lim muassasalariga kirish va “baholar sotib olinadi”degan fikrlarni singdirib olgan yoshlar soni ko‘payishi achinarli oqibatlarga olib keladi.

Xulosa qilib aytish kerakki korrupsiya balosidan qutulish, islohotlarni uning changalidan qutqarish sharaflı burchimiz ekanligini hamma birdek tushunmog‘i va anglab yetmog‘i shart. Aks holda, o‘ziga tegishli xulosa chiqarmay, poraxo‘rlik va tamagirlikdan tiyila olmayotgan shaxslar qonun doirasida jazoga tortilishi muqarrardir.

### Foydalilanigan adabiyotlar

1. 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘naliishi bo‘yicha Xarakatlar strategiyasi. 2017- yil 7-fevraldaggi PQ-4947- sonli Farmoni. “Ozbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami”, 2017 yil 13- fevral.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prizidentining 2017-yil 2- fevraldaggi PQ-2752 son “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuning qoidalarni amalga os-hirish chora tadbirlari to‘g‘risidagi Qarori. “O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami”, 2017 yil 6-fevral.



## ЯККА ТАРТИБДАГИ ТАДБИРКОРЛИК СУБЪЕКТЛАРИНИНГ ҲУҚУҚИЙ МАҚОМИ

Аслонова Орзигул Истроил қизи  
Тошкент давлат юридик университети  
+998 (90) 334-16-50  
aslonovaorzigul@gmail.com

**Аннотация:** якка тартибдаги тадбиркорлик фаолиятини амалга оширувчи субъектларнинг ҳуқуқларини ҳимоя қилиш учун уларнинг ҳуқуқий мақомини тўлиқ шакллантириш жараёни мамлакатимиз иқтисодиётини ўстиришдаги энг муҳим масала ҳисобланади. Мазкур мақолада, якка тартибдаги тадбиркорлик фаолиятини субъектларининг ҳуқуқий ҳимоя қилиш тизимини янада ривожлантириш ва амалдаги қонунчиликдаги зиддиятларни бартараф этиш билан боғлиқ ҳолат атрофлича ўрганилиб, таклиф ва тавсиялар ишлаб чиқилди.

**Калит сўзлар:** якка тартибдаги тадбиркор, дехқон ҳўжалиги, якка тартибдаги тадбиркорнинг ҳуқуқ лаёқати, якка тартибдаги тадбиркорнинг муомала лаёқати, шахсий тадбиркор.

Маълумки, Ўзбекистон Республикаси мустақиллигининг дастлабки кунлариданоқ мамлакатимизда иқтисодиётнинг ғоят муҳим соҳаси бўлмиш кичик бизнесни ривожлантиришни рағбатлантиришга, хусусий тадбиркорлик ҳуқуқларининг кафолатлари ва ҳимоясининг кучли тизимини яратишга жуда катта эътибор бериб келинмоқда.

Бунинг боиси шуки, ижтимоий йўналтирилган замонавий бозор иқтисодиётида кичик бизнес ниҳоятда муҳим ўрин эгаллайди. Энг аввало, кичик бизнес бозор конъюнктураси ўзгаришларига тез мослаша олишга, истеъмолчиларнинг талаб-эҳтиёжлари қандай ўзгаришига қараб иш тута билишга қодирдир. Кичик бизнес ракобатчилик муҳитини шакллантиради, бусиз бозор иқтисодиётини тасаввур қилиб бўлмайди. Иккинчидан, кичик бизнес янги иш ўринларини жадаллик билан барпо этилишини, аҳолининг бандлиги ўсишини ва унинг даромадлари ошиб боришини таъминлайди. Учинчидан, кичик бизнес ички бозорни товарлар ва хизматлар билан бойитишнинг муҳим манбаи ҳисобланади.

Кейинги йилларда мамлакатимизда тадбиркорлик субъектларини давлат рўйхатидан ўтказиш тизими соддалаштирилди, бир неча турдаги солиқларни тўлаш ўрнига кичик бизнесни ягона солиқ тўлови шаклидаги соддалаштирилган солиқقا тортиш тизими жорий этилди, тадбиркорлар ҳуқуқларини ҳимоя қилишни таъминлаш борасидаги ҳуқуқий нормалар мустаҳкамланди, шу билан бир қаторда, уларнинг ҳўжалик фаолиятига назорат қилувчи идораларнинг аралашувини кескин қисқартириш чоралари кўрилди.

Ўз навбатида биргина жорий “Кичик бизнес ва хусусий тадбиркорлик йили”да Ўзбекистон Республикаси Президенти томонидан 2011 йил 4 апрелда “Тадбиркорлик субъектларини текширишларни янада қисқартириш ва улар фаолиятини назорат қилишни ташкил этиш тизимини такомиллаштириш борасидаги қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПФ-4296-сон ва 2011 йил 24 августда “Кичик бизнес ва хусусий тадбиркорликни янада ривожлантириш учун қулай ишбилармонлик муҳитини шакллантиришга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПФ-4354-сон Фармонлари ҳамда 2011 йил 12 майда “Тадбиркорлик субъектларини рўйхатга олиш ва ташкил этиш тартибини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-1529-сон ва 2011 йил 25 августда “Бюрократик тўсиқларни бартараф этиш ва тадбиркорлик фаолияти эркинлигини янада ошириш тўғрисида”ги ПҚ-1604-сон Қарорларининг қабул қилиниши ҳам мамлакатимизда тадбиркорлик субъектларини ҳуқуқий ҳимоя қилиш тизимини изчил такомиллашиб бораётганлигининг ёрқин намунасидир.

Айнан тадбиркорлик субъектларини ҳимоя қилиш қайсиdir маънода унинг ҳуқуқий маъқомини белгилаш орқали намоён бўлади.

Шу ўринда биз якка тартибдаги тадбиркорлик фаолияти субъектларининг ҳуқуқий мақомини ҳақида тўхталиб ўтадиган бўлсақ, уни фуқаролик ҳуқуқи назарияси ва ҳуқуқни қўллаш амалиёти нуктаи назаридан ўрганиш муҳим ахамиятга эгадир. Бинобарин, шахснинг тадбиркор мақомига эга бўлиши уни фуқаролик ҳуқуқининг субъекти сифатида тан олинишига олиб келади ва унга муҳим ҳуқуқий оқибатларни келтириб чиқаради.

Якка тартибдаги тадбиркорлик фаолияти субъектига нисбатан Фуқаролик кодексида



“якка тадбиркор” атамаси ишлатилган бўлса, Ўзбекистон Республикасининг “Тадбиркорлик фаолияти эркинлигининг кафолатлари тўғрисида”ги ва “Банкротлик тўғрисида”ги (янги таҳрири) Конунларда “Якка тартибдаги тадбиркор” атамаси қўлланилган. Масалан, Фуқаролик кодексининг 24-моддаси биринчи қисмида “Фуқаро якка тадбиркор сифатида давлат рўйхатидан ўтказилган пайтдан бошлаб тадбиркорлик фаолияти билан шуғуланишга ҳақлидир”, деб кўрсатилган бўлса, “Тадбиркоролик фаолияти эркинлигининг кафолатлари тўғрисида”ги Конуннинг 6-моддасида “якка тартибдаги тадбиркорлик” деб, “Банкротлик тўғрисида”ги (янги таҳрир) Конуннинг X-бобида “Якка тартибдаги тадбиркорнинг банкротлиги” деб номланган.

Шуниси қизиққи, Ўзбекистон Республикаси Фуқаролик кодексининг ҳам “Тадбиркорлик фаолияти эркинлигининг кафолатлари тўғрисида”ги Конуннинг<sup>1</sup> ҳам рус тили мантида бир хил “индивидуальный предприниматель” атамаси ишлатилган. Ушбу қонунларнинг ўзбек тилидаги матнида эса юқорида таъкидлаганимиздек иккита ҳар хил атамалар ишлатилган. Шунингдек, якка тартибдаги тадбиркорлик фаолияти субъектларига нисбатан Б.Ибраторов,<sup>2</sup> М.Ниёзов<sup>3</sup> “якка тартибдаги тадбиркор” атамасини ишлатган бўлсалар, Ш.Рўзиназаров,<sup>4</sup> ва Д.Назарова<sup>5</sup> “якка тадбиркор” атамасини қўллаганлар.

Фикримизча, “якка тартибдаги тадбиркор” атамаси якка тартибдаги тадбиркорлик фаолияти субъекти тушунчасини тўлиқроқ ёритади, тадбиркорлик фаолияти қайси тартибда юритилаётганини таъкидлайди. “Якка тадбирор” атамаси эса кўпроқ ёлғиз бир одам тадбиркорлик фаолияти билан шуғуланаётганинг англатади. Биз юқорида таъкидлаганимиздек, якка тартибдаги тадбиркорлик фаолияти бир неча киши иштирокида (эр-хотин, дехқон хўжалиги аъзолари) оиласи тадбиркорлик ва юридик шахс ташкил этмасдан дехқон хўжалиги юритиш шаклларида ҳам амалга оширилади. шунингдек, фуқаролик кодексининг 26-моддаси “якка тадбиркорнинг начорлиги (банкрот бўлиши)” деб аталган бўлсада, Ўзбекистон Республикаси Олий суди ва Олий хўжалик суди кўшма Пленумининг 2002 йил 25 октябрдаги 20/107 – сонли “Кичик ва ўрта тадбиркорлик субъектлари, дехқон ва фермер хўжаликларини қўллаб-куватлашга қаратилган қонунларни суд амалиятида қўлланилишининг айрим масалалари ҳақда”ги қарорининг 8-банди биринчи хатбоҳисида “Якка тартибдаги тадбиркорни банкрот деб эътироф этишнинг сабаб ва оқибатлари Ўзбекистон Республикаси фуқаролик кодексининг 26-моддасида белгиланган”<sup>6</sup> деб кўрсатилган. Яъни ушбу қарорда фуқаролик кодекисда белгиланганидек “якка тадбиркор” атамаси эмас балки “тадбиркорлик фаолияти эркинлигининг кафолатлари тўғрисида”ги Конунда белгиланганидек, “якка тартибдаги тадбиркор” атамаси ишлатилган. Демак, юқорида таъкидланган атамалар ўртасидаги фарқни тўғрилаш учун ҳар иккала қонунларни бир-бирига мослаштириш мақсадида Фуқаролик кодексининг 24 ва 26-моддаларидағи “якка тадбиркор” сўзларини “якка тартибдаги тадбиркор” сўзлари билан алмаштириш мақсадга мувофиқ бўлар эди.

Жисмоний шахс тадбиркорлик субъекти бўлишидан аввал ҳуқуқ субъекти (барча ижтимоий муносабатлар иштирокчилари) ва фуқаролик ҳуқуқ субъекти (фуқаролик-ҳуқуқий муносабатлар иштирокчилари) хисобланади. Фуқаролик ҳуқуки субъекти сифатида барча фуқаролар (жисмоний шахслар) ни кўрсатиш мумкин бўлса, тадбиркорлик ҳуқуқида фақат тадбиркор бўлган жисмоний шахсларни кўрсатиш мумкин.

Тадбиркорлик фаолияти субъекти ва якка тартибдаги тадбиркорга батафсил тўхталсак. Якка тартибдаги тадбиркорлик фаолиятининг шаклларига мос равишда қўйдагиларни Якка тартибдаги тадбиркорлик фаолияти субъектлари деб хисоблаш мумкин:

<sup>1</sup> О гарантиях свободы предпринимательской деятельности // Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси-нинг Ахборотномаси. – 2000. - №5-6. – 140 м.

<sup>2</sup> Б.Ибраторов. Тадбиркорлик ҳуқуқи. – Т.: Молия, 2001. – 68 б.

<sup>3</sup> Тадбиркорлик ҳуқуки: – (Умумий қисм): Дарслик \ Ҳ.Рахмонқулов, Ш.Рўзиназаров, М.Ниёзов ва бошқ. – Т.: Консаудитинформ, 2002. – 104 б.

<sup>4</sup> Рўзиназаров Ш. Дехқон хўжалигининг ҳуқуқий мақоми\| Конун химояида. – 2000. - №3. – 18 б.

<sup>5</sup> Назарова Д. Якка тартибдаги тадбиркорларнинг ҳуқуқий мақоми\| хўжалик ва ҳуқуқ. – 2002. - №12. – 39 б.

<sup>6</sup> Ўзбекистон Республикаси Олий суди ва Олий хўжалик суди кўшма Пленумининг 2002 йил 25 октябрдаги 20/107 – сонли “Кичик ва ўрта тадбиркорлик субъектлари, дехқон ва фермер хўжаликларини қўллаб-куватлашга қаратилган қонунларни суд амалиятида қўлланилишининг айрим масалалари ҳақда”ги қарори\| Ўзбекистон Республикаси олий судининг Ахборотномаси. – 2002. -№ 3-4. – 86.



А) шахсий тадбиркор (фақат ўзининг хусусий мулки негизид, шунингдек мол-мулкка эгалик қилиш ва ундан фойдаланишга йўл қўядиган ўзга ашёвий хукуқ туфайли ўзига тегишли бўлган мол-мулк негизида тадбиркорлик фаолиятини амалга оширадиган жисмоний шахс);

Б) юридик шахс ташкил этмаган ҳолда фаолият кўрсатадиган дехқон хўжалиги бошлиги.

Якка тартибдаги тадбиркорлик хусусий фаолият бўлиб, бунда жисмоний шахслар юридик шахс мақомини олмай тадбиркорлик фаолияти билан шуҳулланадилар. Жисмоний шахслар деганда Ўзбекистон Республикаси ФКниг 16-моддасига қўра Ўзбекистон Республикаси фуқаролари, чет ел фуқаролари, шунингдек фуқаролиги бўлмаган шахслар тушунилади. Жисмоний шахслар якка тартибдаги тадбиркор мақомини олишлари учун фуқаролик хукуқий муносабатларга хос бўлган қўйдаги умумий хусусиятларга эга бўлиши керак:

А) хукуқ лаёқати (фуқаролик хукуқ ва бурчларга эга бўлиш лаёқати);

Б) муомала лаёқати (ўз харакатлари билан фуқаролик хукуқларига эга бўлиш ва уларни амалга ошириш, ўзи учун фуқаролик бурчларини вужудга келтириш ва уни бажариш);

В) исмига эгак бўлиши (фуқаролик кодекси 19-м);

Г) яшаш жойига эга бўлиши (фуқаро доимий ёки асосан яшайдиган жойи).

Ушбу умумий хусусиятлардан хукуқшунослар А.Максудов<sup>1</sup> исмига эга бўлиш, В.Эргашев эса муомала лаёқатига эга бўлиш<sup>2</sup> хусусиятларини чиқариб ташлаганлигини тўғри деб бўлмайди. Чунки юқорида келтирилган барча хусусиятлар жисмоний шахсларнинг фуқаролик хукуқий муносабатларига кириши учун муҳимдир. Ушбу хусусиятларнинг барчасига эга бўлган фуқарогина якка тартибдаги тадбиркор бўла олшиши мумкин.

Якка тартибдаги тадбиркорлик фаолияти билан 18 ёшга тўлган, тўла муомалага лаёқатли шахслар, 16 ёшдаги эмансипация (вояга етмаган шахсни тўла муомалага лаёқатли деб эълон қилиш) хукуқидаги вояга етмаган шахслар, 17 ёшдан еркак, 16 ёшдан аёллар, агар улар расмий никоҳдан ўтган бўлсалар, шуғулланишлари мумкин. Демак, тадбиркорлик фаолияти билан 18 ёшга тўлган ва бу ёшга тўлмасдан никоҳга кирган ёки етмасдан 16 ёшдан эмансипация қилинган, яъни тўлиқ муомалага лаёқатли деб топилган фуқаролар шуғулланиши мумкин.<sup>3</sup>

Ишга якка тартибдаги тадбиркорлик фаолияти билан шуғулланиши мумкин бўлган жисмоний шахслар доираси аниқлаб олинади. Умумий қоида бўйича меҳнат қонунчилигида 1-гурух ногиронлари меҳнат шартномаси асосида ишлашга нисбатан чекловлар мавжуд. Бироқ бундай шахслар якка тартибдаги тадбиркор сифатида давлат рўйхатидан ўтиб фуқаролик-хукуқий шартномалар асосида фаолият юритишига нисбатан ҳеч қандай чекловлар белгиланмаслиги лозим. Қонун бундай шахсларни ташаббус кўрсатиб, хаётда ўз ўринни топишига тўсқинлик эмас, балки ёрдам кўрсатиши шарт, деган ғоя илгари сурилмоқда.

Якка тартибдаги тадбиркорлик фаолияти билан шуғулланиш унинг шахси, номи билан боғлиқ. Бу ҳолат якка тартибдаги тадбиркор ўз тадбиркорлик ишини (бизнес-тижоратни) фуқаролик муомаласида ҳақ эвазига ёки текин бошқа субъектларга ўтказилишга тўсқинлик қиласлиги лозим. Бироқ бунда якка тартибдаги тадбиркорнинг тадбиркорлик иши мутако тўлиқ, ҳеч қандай истиноларсиз бошқа субъектга ўтказилиши тўғрисида сўз кетмайди. Якка тартибдаги тадбиркор бизнеси мажмуи тадбиркор – жисмоний шахс билан боғлиқлик даражасига қараб фуқаролик муомаласида бошқаларга ўтказилиши, тадбиркордан бегоналаштирилиши мумкин бўлган ва мумкин бўлмаган қисмларга бўлинади. Якка тартибдаги тадбиркорликнинг ўз номига бўлган хукуқлари, малака, қасб, истисос, мутахассисликни тасдиқловчи хужжатлар, давлат рўйхатидан ўтказиш гувоҳномаси лицензияси тадбиркорнинг шахси билан узвий боғлиқ ва бошқа бировга ҳақ эвазига ёхуд текин равишда ўтказилиши мумкин эмас. Бироқ тадбиркорнинг мол-мулки, мулкий хукуқлари фуқаролик муомаласида бошқа субъектга сотилиши, ўтказилиши мерос бўлиб ўтиши мумкин. Ушбу ҳолат қонунда аниқ-равshan ўз мужассамлигини топиши мақсадга мувофиқ бўлар эди. Мазкур хукуқларни янги субъект томонидан сотиб олиниши

<sup>1</sup> Максудов А. Правовой статус индивидуального предпринимателя // хўжалик ва хукуқ. – 2003. -№8. – 75 б.

<sup>2</sup> Эргашев В. Якка тартибдаги тадбиркорлик субъектларининг хукуқий мақоми // хўжалик ва хукуқ. – 2001. - № 1.

<sup>3</sup> Абдусаломов М.Э. Тадбиркорлар хукуқ ва манбаатларини ҳимоя қилишнинг фуқаролик хукуқий усуллари ва муаммолари. Юридик фанлар номзоди илмий даражасини олиш учун дисс.: - Т.: 2003. – 39 б.



тадбиркорлик фаолиятини давом эттириш учун кифоя қилмайди. Уларни сотиб олган шахс якка тартибдаги тадбиркор сифатида давлат рўйхатидан ўтказилиши талаб этилади. Айни вақтда буни оддий ашё ёки мулкий ҳуқуқлар олди-сотдиси сифатида қарааш мумкин эмас. Нафақат тадбиркор мол-мулки ва мулкий ҳуқуқлари, балки сотувчи-тадбиркорнинг ўзига хос имиджи ҳам сотиб олувчи тадбиркорга ўтгандай бўлади. Ҳеч бўлмаганда соъувчи-тадбиркор орттирган мижозлар доираси шундай тасаввур қиласидар ёки бўлмаса сотиб олувчи – янгидан бошламасдан сотувчи – тадбиркор бизнесини сотиб олади. Фикримизча, бу корхона олди-сотдиси, ашёлар олди-сотдисидан муаян даражада фарқ қиласиди ва олди-сотди шартномасининг ўзига хос тури ҳисобланади.

Фуқаронинг муомала лаёқати чекланганлиги уни фуқаролик муомаласида тўлақонли иштирок этиш имкониятларига тўсиқ бўлади. Якка тартибдаги тадбиркорлик эса субъектдан фуқаролик муомаласида фаол ва тўлақонли иштирок этишини талаб этади. Шу абабли ҳам муомала лаёқати чекланган шахсларни якка тартибдаги тадбиркор сифатида рўйхатдан ўтказишни рад этиш асоси қонунларда белгилаб қўйилиши лозим.

Куйидагилар якка тартибдаги тадбиркорлик фаолияти билан шуғулланиш ман этилиши мумкин:

- 18 ёшга тўлмаганлар (юкоридагилардан ташқари);
- Давлат ҳокимияти ва бошқарув органларининг мансабдор шахслари;
- Суд томонидан муомала лаёқати чекланган шахслар;
- Суд томонидан муомалага лаёқатсиз деб топилган шахслар;
- Суд ҳукмiga биноан тадбиркорлик фаолияти билан шуғулланиши ман этилган шахслар;
- Тадбиркорлик фаолияти билан шуғулланиши қонун ҳужжатларида ман этилган бошқа шахслар.

Якка тартибдаги тадбиркорлик фаолияти субъектларининг фуқаролик ҳуқуқи субъектидан факрли томонлар мавжуд. Фуқаролик ҳуқуқи субъекти бўлган жисмоний шахсдан фарқли равишда якка тартибдаги тадбиркорлик фаолиятининг субъекти бўлган жисмоний шахс:

- Ўрганилган тартибда давлат рўйхатидан ўтган бўлиши;
- Мулк ҳуқуқи асосида ўзига тегишли бўлган мол-мулк негизида, шунингдек, мол-мулкка эгалик қилиш ва ундан фойдаланишга йўл қўядиган ўзга ашёй ҳуқуқ тифайли ўзига тегишли бўлган мол-мулк негизида тадбиркорлик фаолиятини амалга ошириши лозим.

Мамлакатимизда иқтисодиётни ривожлантириш, белгиланган ислоҳотларни лозим даражада рўёбга чиқариш, аввало, ҳўжалик субъектларининг эркин фаолият кўрсатишига, уларда ишлаб чиқаришни ривожлантиришни рафбатлантиришга, ўзаро муҳитининг яратилишига ва тадбиркорлик фаолияти субъектлари сонининг кўпайишига бевосита боғлиқдир. Шунинг учун тадбиркорлик субъектларини давлат рўйхатидан ўтказиш мухим юридик факт ҳисобланиб, қонунчилик ҳужжатларига кўра шу пайтдан бошлаб у ҳуқуқ субъекти сифатида тан олинади, тўлиқ ҳуқуқ ва муомала лаёқатига эга бўлади, яъни ҳуқуқий муносабатларда алоҳида мустақил шахс сифатида вужудга келади.<sup>1</sup> фуқаронинг тадбиркорлик фаолияти билан шуғулланишга бўлган субъектив ҳуқуқи унинг ҳуқуқ лаёқатига мувофиқ ва муаян юридик фактнинг юз бериши, яъни у тадбиркор сифатида давлат рўйхатидан ўтказилган пайтдан бошлаб вужудга келади.<sup>2</sup>

Тадбиркорлик фаолияти субъектлари самарали фаолият кўрсатиши учун қулай иқтисодий ва ҳуқуқий шарт-шароитлар яратиш мақсадида Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2003 йил 20 августдаги 357-сонли қарори билан “Тадбиркорлик субъектларини давлат рўйхатидан ўтказиш, ҳисобга қўйиш ва руҳсат берувчи ҳужжатларни расмийлаштириш тартиби тўғрисида”ги Низом тасдиқланган. Тадбиркорлик фаолияти субъектларини расмийлаштириш ва давлат рўйхатидан ўтказишга розилик берувчи ташкилотлар сони кескин қисқартирилиб, фақат битта ташкилот доирасида амалга ошириш таъминланади. Юқорида таъкидланган қарор ва у билан тасдиқланган Низомда тегишли давлат органларининг ҳар бир ҳаракати аниқ кўрсатилган ва муаян муддатларда амалга оширилиши бел-

<sup>1</sup> Абдусаломов М., Рўзиназаров Ш., тадбиркорлик фаолияти субъектларининг ҳуқуқий лаёқати ва унинг ҳуқуқий асосларини такомиллаштириш муаммолари // Ҳуқуқ. Право.Law. – 2002. №4. – 13 б.

<sup>2</sup> Раҳмонқулов X.P. Тадбиркорликнинг мулкий ва ҳуқуқий асослари тўғрисида // ҳўжалик ва ҳуқуқ. – 2000. №11.



гиланган.

Юқоридагиларга асосланиб, шуни айтиш мумкинки, мамлакатимиз қонунчилигига якка тартибдаги тадбиркорлик фаолияти субъектлари ва уларнинг ҳуқуқий мақоми масалалари имкон даражасида ёритилган. Шундай бўлсада якка тартибдаги тадбиркорлик фаолияти субъектларининг ўзига хос бўлган ҳусусиятларини очиб бериш зарурати бу соҳадаги қонунчиликни такомиллаштиришни талаб этади.

### **Фойдаланилган адабиётлар рўйхати**

1. Каримов И.А. Янгича фикрлаш ва ишлаш – давр талаби.5-ж. – Т.: Ўзбекистон, 1997. – 367 б.
2. О гарантиях свободы предпринимательской деятельности // Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси. – 2000. - №5-6. – 140 м.
3. Б.Ибраторов. Тадбиркорлик ҳуқуқи. – Т.: Молия, 2001. – 68 б.
4. Тадбиркорлик ҳуқуқи: – (Умумий қисм): Дарслик \ Ҳ.Рахмонқулов, Ш.Рўзиназаров, М.Ниёзов ва бошқ. – Т.: Консаудитинформ, 2002. – 104 б.
5. Рўзиназаров Ш. Дехқон хўжалигининг ҳуқуқий мақоми\\ Қонун ҳимояида. – 2000. - №3. – 18 б.
6. Назарова Д. Якка тартибдаги тадбиркорларнинг ҳуқуқий мақоми\\ хўжалик ва ҳуқуқ. – 2002. - №12. – 39 б.
7. Ўзбекистон Республикаси Олий суди ва Олий хўжалик суди қўшма Пленумининг 2002 йил 25 октябрдаги 20/107 – сонли “Кичик ва ўрга тадбиркорлик субъектлари, дехқон ва фермер хўжаликларини қўллаб-қувватлашга қаратилган қонунларни суд амалиятида қўлланилишининг айrim масалалари ҳақда”ги қарори\\ Ўзбекистон Республикаси олий сундининг Ахборотномаси. – 2002. -№ 3-4. – 86.
8. Максудов А. Правовой статус индивидуального предпринимателя // хўжалик ва ҳуқуқ. – 2003. -№8. – 75 б.
9. Эргашев В. Якка тартибдаги тадбиркорлик субъектларининг ҳуқуқий мақоми // хўжалик ва ҳуқуқ. – 2001. - № 1.
10. Абдусаломов М.Э. Тадбиркорлар ҳуқуқ ва манфаатларини ҳимоя қилишнинг фуқаролик ҳуқуқий усуслари ва муаммолари. Юридик фанлар номзоди илмий даражасини олиш учун дисс.: - Т.: 2003. – 39 б.
11. Абдусаломов М., Рўзиназаров Ш., тадбиркорлик фаолияти субъектларининг ҳуқуқий лаёқати ва унинг ҳуқуқий асосларини такомиллаштириш муаммолари // Ҳуқуқ. Право.Law. – 2002. №4. – 13 б.
12. Раҳмонқулов Ҳ.Р. Тадбиркорликнинг мулкий ва ҳуқуқий асослари тўғрисида // хўжалик ва ҳуқуқ. – 2000. №11.

**"ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР"  
МАВЗУСИДАГИ РЕСПУБЛИКА 28-КЎП ТАРМОҚЛИ  
ИЛМИЙ МАСОФАВИЙ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЯ  
МАТЕРИАЛЛАРИ**

**(1-қисм)**

**Масъул мухаррир:** Файзиев Шохруд Фармонович  
**Мусаҳҳих:** Файзиев Фарруҳ Фармонович  
**Саҳифаловчи:** Шахрам Файзиев

Эълон қилиш муддати: 31.05.2021

**Контакт редакций научных журналов.** tadqiqot.uz  
ООО Tadqiqot, город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

**Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz**  
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000